

**S. TURSUNOVA**

**SO'Z MA'NOSI USTIDA ISHLASH  
JARAYONIDA O'QUVCHILARNING  
KREATIV QOBILIYATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(BOSHLANG'ICH SINIF  
ONA TILI VA O'QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARI  
ASOSIDA)**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**TURSUNOVA SARVINOZ**

**SO‘Z MA‘NOSI USTIDA ISHLASH JARAYONIDA  
O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILİYATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI VA  
O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ASOSIDA)**

**MONOGRAFIYA**

«SARBON LLS»

Toshkent – 2024

**UO‘K:**

**KBK:**

**Tursunova Sarvinoz Telman qizi**

**So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish (boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslari asosida) / Monografiya. –T.: «SARBON LLS» nashriyoti, 2024. – 100 b .**

Mazkur monografiyada yurtimiz taraqqiyotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash va buning asosida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilib berilgan va tavsiyalar taqdim etilgan.

Monografiya boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari, amaliy faoliyatidagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**F.U. Jumanova** – Nizomiy nomidagi TDPU, professor.

**A.Y. Kuchkinov** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent.

*Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 16 dekabrdagidagi 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN

## MUNDARIJA

KIRISH.....	5
<b>I BOB. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning pedagogik, psixologik va metodik asoslari.....</b>	<b>12</b>
1.1. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bilan bog‘liq adabiyotlar tahlili .....	12
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari.....	18
Bob bo‘yicha xulosa.....	28
<b>II BOB. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi .....</b>	<b>30</b>
2.1. So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish yo‘llari .....	30
2.2. Boshlang‘ich sinflarda matn yaratish orqali o‘quvchilarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	38
2.3. So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish orqali takomillashtirish .....	56
Bob bo‘yicha xulosa.....	67
<b>III BOB. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ</b>	

<b>qobiliyatlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari .....</b>	<b>69</b>
3.1. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi "Katta bo'lsam, nobel mukofoti olaman!" matni orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini o'stirish .....	69
3.2. Tajriba-sinov ishlari va uning natijalari .....	76
Bob bo'yicha xulosa .....	82
Umumiy xulosa .....	84
Foydalanilgan adabiyotlar .....	87

## KIRISH

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz<sup>1</sup>.

Jahonda bugungi globallashuv davrida muayyan tillarni muloqot vositasi sifatida o'rganish, har bir tilni jonli holatda o'rgatish, so'z ma'nolari ustida uzluksiz ishlash ustuvor vazifa qilib qo'yilmoqdaki, zero, tilning asosiy vazifasi kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvni shakllantirishdan iborat ekan, ta'lim muassasalarida asosiy e'tiborni kommunikativ maqsadlarga yo'naltirish sanaladi. Bu esa o'quvchilar muloqotining takomillashuviga, ularda erkin so'zlashuv bo'yicha ko'nikma va malakalarning oshishiga, so'z ma'nosi ustida ishlash qo'yiladigan talablar hamda til materialidan maqsadli foydalanishda ona tili o'qitish mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish kerakligini taqozo etadi.

Tilni muloqot vositasi sifatida o'qitish AQSh, Avstraliya, Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy Xalq respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va boshqa qator mamlakatlarda yetakchi yo'nalish sifatida tan olinib, uning nazariy asoslari yaratilib, o'qituv uslublari belgilab berilmoqda. Natijada o'ziga xos ravishda nutq lingvistikasi yaratildi. Zamonaviy tillarni o'rgatish bilan bog'liq nazariy, ilmiy va metodik

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi). Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2017, 13-14-bet.

masalalar Yevropa markazida, Islam Indonesiya universitetida, Linton, Inchon, Beyjing, Xankuang, Turkiyaning Gazi niversitesi (Turkiya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Nauchnyy tsentr gumanitarnykh issledovaniy (Rossiya) kabi ko'plab ilmiy markazlarda, universitetlarda tadqiq ob'ekti bo'lib, o'quvchilarga ona tilini muloqot metodi asosida unga kreativlik bilan yondashgan holda o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani alohida ahamiyatga ega. Ona tilini o'qitishdan maqsad o'quvchi tafakkurini rivojlantirish barobarida fikrlash qobiliyatini o'stirishdan va o'z fikrini nutqiy iroda qila olishdan, shuningdek, uni yozma tarzda ifodalay olishdan iboratdir.

Umumta'lim maktablarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga til birliklarining ma'no va vazifalari, asosiy e'tiborni jonli muloqotga, fikrni adresatga uzatish va undan axborotni qabul qilib olish jarayoniga, nutqning uslubiy jihatlariga, aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishidagi supersegment vositalardan (ohang, pauza, tovushlarning sifatiy xususiyatlari va b.) foydalanishga qaratilmoqda. Bu esa mamlakatimizda umumiy kommunikativ bilimning yuqori bo'lishini, nutqning ta'sirchanligini, suhbatning jozibali va maqsadli amalga oshishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham yoshlarni bilimli, nutqi ravon, ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947-son Farmoni<sup>2</sup> hamda 2019 -yil 21 -oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida "Ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirishda davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish"<sup>3</sup> zarurligi alohida ta'kidlandi.

Ushbu qaror va Farmonlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish ishimizning maqsadini belgilaydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda kreativ kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'qitish zaruriyati maqsad qilingan.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish, so'z ma'nosi ustida ishlashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ko'p hollarda o'quvchilar topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi andozasidan nariga o'tmaydilar. Qo'yilgan muammolarning ilmiy nuqtayi nazaridan o'rganilishi Boshlang'ich sinfda dars berayotgan o'qituvchilarning mehnatini yengillashtirishga, o'qitishning sifatini yaxshilashga, ya'ni ta'limning yo'nalishini shakllantirish va rivojlantirish tomon borishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

---

<sup>2</sup>www.lex.uz / Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ- 4947-сон Фармони- Т. 2017, 7 февраль.

<sup>3</sup> www.lex.uz/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил, 21 октябрдаги "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ - 5850-сон Фармони. –Т. 2019, 21 октябрь.



Inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli hamda mustaqil fikrlash madaniyati va u bilan bog‘liq bilish jarayonini faollashtirish muammosi Kaykovus, Forobiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Til ta‘limida mustaqil ishlar, lug‘at ustida ishlash, nutq o‘stirish masalalari Y.Abdullayev, Q.Abdullaeva, K.Qosimova, A.G‘ulomov, M.Asqarova, T.Niyazmetova, S.Matchonov, Q.Husanboeva, Sh.Yusupova, N.Yuldasheva, R.Safarova, A.Hamroyev, M.Saidov, N.Alavuddinova, F.O‘rinova, U.Masharipova kabi pedagog olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta‘limning turli bosqichlarida nutq madaniyatini shakllantirish, nutqiy faoliyat masalalari, so‘z ma‘nolari ustida ishlash masalalari MDH davlatlarining S.P.Redozubov, K.E.Bezukladnikov, T.G.Ramzayeva, T.P.Malyavina, L.V.Abakumova, N.F.Titova, A.F.Boytsova, I.A.Zimnyaya, A.S.Yegorova, V.K.Buryak, A.N.Vasileva, V.V.Gerbova, L.S.Vigotskiy, G.N.Pristupa, T.I.Shamova, N.G.Dmitruk, I.G.Kalinina, T.A.Ladijenskaya, P.A.Grushnikov kabi olimlari tomonidan turli darajada o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, til ta‘limida nutq o‘stirish har xil nuqtayi nazardan o‘rganilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish maxsus tadqiq qilinmagan.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, so‘z ma‘nosi ustida ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘quvchilarning

soʻz boyligi hamda nutqi ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yoʻllari va usullarini ishlab chiqish, uni sinovdan oʻtkazish va tavsiyalar tayyorlashdan iborat. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash orqali oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish jarayonidir. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash orqali oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish yoʻllarini belgilash, oʻqituvchilar ish amaliyotida qoʻllanilayotgan ilgʻor tajribalar hamda yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklarning sabablarini aniqlab topishdir. Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash orqali oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish koʻnikmalarini hosil qilishga oid zaruriy bilim, koʻnikma va malakalar bilan qurollashtirish asosida tashkil etilsa, har bir til hodisasini oʻrganish oʻquvchi uchun shavqu zavqqa aylantirilsa, oʻquvchi ham oʻqituvchi ham darsning faol ishlovchisiga aylansa, soʻz maʼnosi ustida ishlash orqali oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan keng foydalanilsa, katta mavzular va boʻlimlar oʻrganilgandan ijodiy matnlardan yaratish bosqichlari “Topqirlar bellashuv” asosida oʻtkazilsa, ona tili darslarida qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlar bilan qisman ijodiy va ijodiy xarakteridagi topshiriqlar oʻrtasida mutanosiblik vujudga keltirilsa, ona tili mashgʻulotlarining samaradorlik darajasi yuqori boʻladi. Tadqiqot ishining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifani bajarish rejalashtirilgan:

- boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik bo'yicha bilimining mavjud ahvolini tekshirish, maktabda bu bo'yicha o'qituvchilar yo'l qo'yayotgan kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish, qo'lga kiritilgan ilg'or tajribalarini umumlashtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish mavzusi bo'yicha ularga beriladigan zaruriy bilim malaka va ko'nikmalarni belgilash;

- topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

-boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning eng qulay va samarali yo'llari, vositalari, usullarini aniqlash.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, davlat hujjatlari, shuningdek, boshlang'ich ta'lim bo'yicha "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi", Milliy o'quv dasturi (1-11-sinflar uchun), ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari (1-3-sinflar), o'qituvchi kitobi, ona tili o'qitish metodikasi darsligi, ona tilidan didaktik materiallar, pedagogika, psixologiya va ona tili o'qitishning nazariy asoslari va ilmiy-metodik adabiyotlar tashkil etadi.

Qo'yiladigan vazifalarni yechish uchun quyidagi metodlardan foydanildi:

-dastur va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili;

- ona tili va o'qish savodxonligi darslarini kuzatish va tahlil qilish;
- o'quvchilarning yozma ish daftarlarini tekshirish;
- so'rov usullari (anketa so'rovlari, suhbat intervyu va hokazolar)dan foydalanish.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash orqali leksik birliklarning kontekstual tahlili asosida o'quvchilarda pragmatik intuitsiyani shakllantirish va nutqiy kompetentlikni anglash, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari takomillashtirilgan; ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash asosida til birliklarini kommunikativ maqsad va nutqiy vaziyatga mutanosib qo'llanishini anglash, tushunish va ijodiy baholashga doir pragmatik kompetentsiyani shakllantirish metodikasi takomillashtirilgan, darslarda subyekt-subyekt munosabatiga aylantirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotdan quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining mazmunli kommunikativ tamoil asosida qurish;

- boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nosi ustida ishlash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rgatish malakalarini shakllantirish;

- ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish.

# **I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SO‘Z MA‘NOSI USTIDA ISHLASH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI**

## **1.1. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bilan bog‘liq adabiyotlar tahlili**

Ta‘lim sohadagi izlanishlarimiz natijalariga asoslanib qayd etish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv–bilish faoliyati muhitini tarkib toptirishda quyidagilarga e‘tibor berish maqsadga muvofiq: ta‘lim oluvchilarning o‘quv–bilish faoliyatini yuksaltirish muammosini hal qilish davlat siyosati darajasidagi masala sifatida ko‘rib chiqilayotganligi - bu katta imkoniyat. Bunda birgina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida ayni ko‘rib chiqilayotgan muammo echimini hal qilishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-iyundagi “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida” gi Farmonida “Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir”, - deb alohida belgilangan. Bu hujjat ham kelajagimiz vorislari

bo'lgan yoshlarni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli va innovatsion rivojlangan barkamol shaxs bo'lib yetishishidagi muhim jihatlardan biri bo'lib, ularda:

- boshlang'ich ta'limning obyektiv tarzda insonning intellektual salohiyatini rivojlantirish va tabiiy qobiliyatlarini ishga solishga keng imkoniyatlar mavjudligiga;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv–bilish faoliyatining har bir tarkibiy qismida o'quvchilarning intellektual salohiyatli, axloqiy pok, jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lib rivojlanishiga va ularga mos bilimlar hajmini muntazam o'stirib borishga didaktik imkoniyatlarning mavjudligiga;

- zamonaviy pedagogikada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv–bilish faoliyatini yuksaltirishga oid interfaol uslublar va texnologiyalarning mavjudligiga (bunda agar muammo yechimini hal qilishga mos innovatsion metod yoki texnologiya topilmasa, u holda muammoni hal qilishga mos innovatsion metod yoki texnologiya ishlab chiqiladi);

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv–bilish faoliyatining tashkiliy, pedagogik, psixologik va texnologik shakllarini jamiyat taraqqiyoti darajasiga va unga mos zamonaviy boshlang'ich ta'limga qo'yilgan talablarga qarab optimal rejalashtirish, ularga o'z sohasining innovatsion texnologiyalarini uzluksiz yetkazib berish imkoniyatlarining mavjudligiga;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv–bilish faoliyatini tarkib toptirishga oid mediata'lim vositalarining mavjudligiga va bosh-

lang'ich sinf o'quvchilarini informatika ta'limiga tayyorlash metodikalarining mavjudligiga va shu kabilarga alohida e'tibor berilgan.

Mustaqillik yillarida yurtimizning yetakchi pedagog olimlari Sh.J.Yusupova hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirish, ona tilini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish; A.Q.G'ulomov ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish, ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, A.Ya.Bobomurodova ona tili ta'limida o'yin-topshiriqlardan foydalanish, T.U.Ziyadovanning ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, M.S.Saidov bolalar tafakkuriga mo'ljallab tuzilgan o'quv topshiriqlarini ona tili ta'limiga tatbiq qilish yo'llari, N.Yuldasheva o'z tadqiqotlarida ona tilini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni, T.T.G'aniyev ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, N.Alavuddinova esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi <sup>4</sup> masalalarini tadqiq qilgan.

---

<sup>4</sup>Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчиларнинг тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс.–Тошкент. 2005. -277 б.; Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илгор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ. –Т.,1998.– 137 б. Ғуломов А.Қ. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. –Т.: Ўқитувчи, 1987. -156 б.; Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.; Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: 1996. -145 б.; Зиядова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1995. -161 б.; Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2000. -147 б.; Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида лугавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.–Т., 2002. –123б. Ғаниев Т.Т. Она тилидан машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш. Пед. фанл.

Aynan boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha Sh.Nurullaeva boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, A.R.Hamroyev boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish, X.Bakiyeva boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi<sup>5</sup> bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, tadqiqot mavzusiga yaqin ishlar sifatida olimlardan o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, ta'limda o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammosi I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov<sup>6</sup>lar tomonidan o'rganilgan.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning sifatini boshqarish masalalari R.X.Djuraev, R.Sh.Ahliddinov, U.I.Inoyatov, N.Muslimov, M.B.Urazovalar<sup>7</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

---

номз. илм. дараж. Олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1991. -194 б.; Алавуудинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед.

фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. – Т., 2008.– 24 б.

<sup>5</sup>Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2005. -152 б.; Ҳамроев А.Р. Бошланғич синф она тили таълимини ижодий ташкил этиш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2005. -164 б.; Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. -61 б.

<sup>6</sup>Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1994. -44 с.; ; Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –М.: Ўқитувчи, 1981. -103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фанл. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: Қори Ниёзий номили ЎзПФТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимини ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. -280 б.; Махмудов М.Х. Таълимини дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2004. - 42 б.

<sup>7</sup>Джураев Р.Х. Теория и практика интенсификации профессиональной подготовки учащихся профтех училищ. –Т.: Фан, 1992. –259 с.; Ахлиддинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на матер.Национальной программы по подготовке кадров): Дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: 2002. – 44 с.; Иноят



O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish muammoli ta'lim kontekstida, ta'limni ijodiy tashkil etish, bolalar ijodkorligi, intuitsiya, diskursiv fikrlash-harakat va tafakkur, bolalar ijodkorligi kompleks psixologik hodisa sifatida T.S.Krasota, N.A.Lashkarova, T.I.Shamova, I.P.Volkov, I.V.Dorno, V.V.Matkin, M.I.Maxmutov, F.Ya.Baykov, L.A.Venger va A.L.Venger, Ya.A. Ponomarevlar<sup>8</sup>; I.Johnson (San-Fratsisko) ijodiy ta'limni tashkil etish, Bandura A., Paulson Stone (Massachusetts, USA) ona tilini o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi munosabati, Hernan Avila (Kolumbiya) ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda sinfdan tashqari ishlar, Jocelyn Howard (USA) o'qituvchi faoliyatini loyihalashning metodik imkoniyatlari, Lars Yacob (Britaniya) o'qituvchi va o'quvchi istiqbollari, Maria Bajas ta'limda raqamli ijodkorlik, Maria del Mar Camacho Marti (Nyu York) AKTga asoslangan sharoitda o'qituvchining faoliyatini loyihalash, Peter Edelenbos, Richard Jonstone (Yevropa ta'lim va madaniyat komissiyasi) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda tilga o'rgatish, F.Amari o'qituvchilar dasturiy

---

У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс. докт. пед. наук. - Ташкент, 2003. - 327 с; Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. докт. ... дисс. – Т.: 2007. – 357 б.; Уразова М.Б. Ёўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед. фанл. докт. ... дисс. автореф. –Т., 2015. –Б 10-21.

<sup>8</sup>Красота Т.С. Методика активизации мыслительной деятельности учащихся при изучении темы -Имя существительное! в 5-классах. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Ленинград, 1979. -18 с.; Лашкарова Н.А. Роль межпредметных связей в повышении самостоятельности к творческой активности учащихся на уроках русского языка. –М.: 1970. -142 с.; Шамова Т.И. Активизация учения школьников. –М.: Педагогика, 1982. -208 с.Вольков И.П. Учим творчеству // Педагогический поиск. –М.: Педагогика, 1987. -с. 101-140.; Дорно И.В. Проблемное обучения в школе. –М.: Просвещение, 1984. -31 с.; Маткин В.В. Межпредметные проблемные познавательные задачи как средство формирования интереса к творческой деятельности школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М.: 1977. -28 с.; Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. –М.: Просвещение, 1977. -240 с.; Байков Ф.Я. Учение и творчество. –Л.: Лениниздат, 1979. -149 с.; Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления. –М.: Знание, 1985. -80 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. М.: Педагогика, 1976. -280 с.

vositalardan foydalanish, S.Wond o'qituvchilar fe'l-atvori va muloqotga kirishish darajasi, S.Demetriadis ona tili ta'limida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish<sup>9</sup> bo'yicha doir tadqiqotlarni amalga oshirgan.

---

<sup>9</sup>Creative Teaching: Using Creative Teaching Methods in a Student-centered ESL Environment. Ivy Johnson. [ivy.m.johnson@gmail.com](mailto:ivy.m.johnson@gmail.com); Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies.—New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California.—Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L.C.Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. — P.176-188.; A professional development program for the mother tonguebased teacher: addressing teacher knowledge and attitudes about mtbml A Dissertation Presented by Rebecca Paulson Stone [https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open\\_access\\_dissertations](https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open_access_dissertations).; Avila, H. A. (2015). Creativity in the English class: Activities to promote EFL learning. HOW, 22(2), 91-103. This article is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License. License Deed can be consulted at <http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>.; Mario Barajas, Frïdïrique Frossard (University of Barcelona). Docent – digital creativity enhanced in teacher education. Framework of digital creative teaching competences. This project has been funded with support from the European Commission.; Larsen, Lars Jacob Ege, "Teacher and student perspectives on a blended learning intensive English program writing course" (2012). Graduate Theses and Dissertations. 12375. <https://lib.dr.iastate.edu/etd/12375>; Universitat rovara ivirgili theacher training in ict-based learning settings. desing and implementation of an on-line instructional model for english language teachers. doctoral thesis. Maria del Mar Camacho i Martn. ISBN: 978-84-690-7634 / DL: T.1394-2007; Peter Edelenbos, Richard Johnstone.The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners Languages for the children of Europe. Published Research, Good Practice & Main Principles; Amiri F. IT-literacy for language teachers: should it include computer programming System, Volume 28, Issue 1, 2015, -P. 77-84.; Demetriadis S. —Cultures in negotiation!: teachers' acceptance/resistance attitudes considering the infusion of technology into schools, Computers and Education, Volume 41, Issue 1, 2013, -P. 19-37.; Wong S.L., Ab Jalil H., Fauzi Mohd Ayub A., Abu Bakar K., Tang S.H. Teaching a discrete information technology course in a constructivist learning environment: is it effective for Malaysian pre-service teachers? The Internet and Higher Education, Volume 6, Issue 2, 2003. -P. 193-204.

## **1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari**

Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qish savodxonligi o‘quv fanini o‘rganish, asosan, 6-7 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bola maktab talablariga ancha ko‘nikkan, asosiy mashg‘uloti o‘qish ekanligini anglagan, fikri, tushunchasi bog‘cha yoshidagi bolalik davriga nisbatan ancha rivojlangan, eng muhimi, psixologik jihatdan o‘qishga tayyor davr sanaladi. “Ta’limga psixologik tayyorgarlik deganda, - deb qayd qiladi E.G‘oziyev, - bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi? Bu yoshdagi bolalarda idrok ancha o‘tkirlashadi, o‘qishga qiziquvchanligi oshadi, xayoli yorqinlashib, xotirasi chiniqadi, tafakkur doirasi nisbatan kengayib, ijodiy fikrlashga moyillik ortadi.<sup>10</sup>

2-sinf o‘quvchilarida yaqqol obrazli xotira ancha taraqqiy etgan bo‘ladi. Bu yoshda o‘quvchilar ko‘rgan, kuzatgan narsalarini xotirada uzoq vaqt saqlay oladi. Shu sababli ona tili mashg‘ulotlarida ko‘rsatmali vositalardan: diafilm, o‘quv filmlari va audiovizual vositalardan unumli foydalanishga jiddiy e‘tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. 7-11 yoshli bolalar o‘qiganini yoki eshitganlarini etarli darajada tushunadi; o‘z fikrlarini ona tilida izchillik bilan bayon qila oladi; mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish singarilarni bemalol bajara oladi; o‘rganganlari asosida umumlashma hosil qilishi mumkin.

O‘qituvchi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan qaysi yo‘nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O‘quvchini fanga qiziqtirish,

---

<sup>10</sup> Ғозиев Э. Психология. Тошкент “Ўқитувчи”, 1994, 56-бет.

undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'qituvchisidan mohirlikni, o'ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta xotiralanishga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo'ygan ekan, ma'lum so'z jamg'armasi bilan keladi. U oilada, bog'chada ko'p so'zlarni ishlatsa-da, hali ularning ma'nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo'ladi.

Mashhur psixolog V.A.Kruteskiyning ta'kidlashicha, bu davrda ular o'z oldilariga "Nima uchun bunday?" – "Nima uchun shu narsani o'rganish kerak?" degan savolni qo'ya oladigan bo'lishadi.<sup>11</sup> Bu davrda ular "Nima uchun o'z ona tilimizni bilishimiz kerak?" degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o'rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlarni o'rganishlariga keng yo'l ochib berishini anglay boshlaydilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinfdagi o'qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idroklarining aniqligi, softligi, o'tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o'rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars

---

<sup>11</sup> Крутецкий В.А. Педагогик психология асослари. Тошкент "Ўқитувчи", 1976, 59-бет.

jarayonida duch kelinadigan soʻzlarni tez qabul qiladilar.

Ona tilini oʻrganishga boʻlgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi oʻquvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha oʻtkirlashtiradi. Baʼzan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat-eʼtiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois oʻqituvchi dars mashgʻulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida eʼtibor berishi lozim.

Boshlangʻich sinfda oʻquvchilar idrokining yana bir xususiyati uning xilma-xilligi, yorqin boʻyoqlar, yaqqol tasvir va his – tuygʻuga boyligidir. Shuning uchun bu yoshda oʻquvchilar rangli tasvirlarni, his-tuygʻu uygʻotadigan rasmlarni yoqtiradilar.

Ammo bu oʻrinda shuni taʼkidlash lozimki, meʼyoridan ortiq rangli rasmlar bolani charchatib qoʻyadi va rasmlarga tez-tez murojaat etish uni zeriktiradi. Shuning uchun 2,-3,4-sinflar uchun “Ona tili va oʻqish savodxonligi” hamda “Ona tili” darsliklarini haddan ziyod rasmlar bilan toʻldirish maqsadga muvofiq emas. Oʻquvchilarning oʻqishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmash lozim.

“Diqqat, -deb qayd qilinadi. “Oʻzbek tilining izohli lugat”da, – eʼtiborini bir joyga toʻplamoq, yigʻmoq, uni biror narsaga qaratmoq demakdir”.<sup>12</sup>

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmash lozim. Bu yoshdagi

---

<sup>12</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1- том. – Тошкент: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2006, 660-б.

bolalar diqqatlarini muayan narsaga qaratib turishda qiynaladilar. Bolalar diqqatining barqarorligi, psixologlar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, miyada tormozlanish bilan qo'zg'alishning o'zaro nomuvofiq harakat qilishidir. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning ko'p hollarda tutulishi, to'xtab qolishi, so'zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi, yozishda ba'zan harf, bo'g'in, so'zlarning tushib qolishi mana shu fiziologik holat tufayli sodir bo'ladi.

Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o'z diqqatlarini muayan obyektga qarata olmasligini ko'rsatadi. Bu ona tili mashg'ulotlarida ta'lim usullarini tez-tez o'zgartirib turishni, o'quv topshiriqlarining rang-barangligini ta'minlashni taqozo etadi. Chunki ta'lim usuli yoki o'quv topshirig'i o'zgartirilishi bilan o'quvchilarning unga munosabati ham o'zgaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatidagi bu xususiyat vaqti-vaqti bilan mashg'ulotning turini o'zgartirishini, norasmiy darslarning turli-tuman ko'rinishlaridan foydalanishni talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Xotira" deganda shaxsning o'z hayotiy tajribasini saqlab turishi va keyinchalik esga tushurishi tushuniladi. Psixologik adabiyotlarda xotiraning ikki turi:

1) so'z – mantiq xotirasi;

2) ko'rgazmali - harakatli xotira mavjudligi qayd qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy (so'z - mantiq) xotiradan ko'ra ko'rgazmali - harakatli xotira ancha rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ham ona tilini o'rganish jarayonida nazariy ma'lumotlarni o'zbek tilining imlo qoidalarini tushuntirish orqali o'rganishdan ko'ra sinf taxtasi yoki

jadvalda yozilgan soʻzlarni, rasmda aks etgan narsalarni tushunish ancha oson kechadi.

Maʼlumki, 8-9 yosh bolalarda xotira ancha mustahkam boʻladi. Shu sababli bu yoshdagi bolalar oʻrganilayotgan oʻquv materialining mohiyatini anglab yetishdan koʻra, shu materialni iloji boricha soʻzma-soʻz yodlab olishga harakat qiladilar. V.A.Kruteskiyning fikricha,<sup>13</sup> bu holning asosiy sababi, birinchidan, oʻquvchi oldiga esda saqlab qolish kerakligi vazifa qilib qoʻyilganda, hali u oʻzidan konkret nima talab qilinayotganligini tushunmaydi, nimalarni soʻzma-soʻz esda olib qolish kerag-u, nimalarni eng umumiy tarzda esda saqlab qolish kerakligini ajrata olmaydi, ikkinchidan, birinchi va ikkinchi sinf oʻquvchilari nutqini yaxshi egallamaganliklari tufayli matnning umumiy maʼnosini oʻz soʻzlari bilan aytib berishga qaraganda, uni soʻzma-soʻz aytib berish ular uchun osonroq tuyuladi.<sup>14</sup>

Kichik maktab yoshida oʻquvchilar oʻz oldilariga oʻquv maqsadi qoʻyishda qiynaladilar. Shu boisdan ham ular faoliyatida ixtiyorsiz esda qoldirish muhim oʻrin egallaydi. Oʻqituvchi boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yoshi bilan bogʻliq ana shu xususiyatni hisobga olgan holda har bir soatlik ona tili darsidan koʻzlangan maqsadni oʻquvchilar ongiga singdirishga alohida eʼtibor qaratishga toʻgʻri keladi. Oʻquvchi dars mashgʻulotidan koʻzlangan maqsadni tushunib yetsa, uni oʻrganishga qiziqishi ortadi va oʻquv materialini xotirada saqlab qolishi osonlashadi.

Xotira – tarbiya mahsuli. Shuning uchun oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga materialni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib toptirishi, asta - sekinlik bilan mantiqiy - aqliy faoliyat usullariga (kuzatish,

---

<sup>13</sup> Крутецкий В.А. Педагогик психология асослари. Тошкент “Ўқитувчи”, 1976, 69-bet.

<sup>14</sup> Крутецкий В.А. Педагогик психология асослари. Тошкент “Ўқитувчи”, 1976, 69-bet.

taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish) oʻrgatib borishi lozim.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun taʼlim jarayonida oʻzini-oʻzi nazorat qilish; oʻrganilgan materialini esga tushurish; mashq qilishdan unumli foydalanishga toʻgʻri keladi. Ona tili va oʻqish savodxonligi mashgʻulotlarining samaradorligi tilga olingan ana shu vositalar bilan chambarchas bogʻlangan. Talaffuzi va imlosi murakkab boʻlgan bir qator soʻzlarni bir marta aytishi yoki yozib koʻrsatish bilan oʻquvchi xotirasiga kiritish qiyin. Bu soʻzlarning imlosini oʻzlashtirish faqat qayta – qayta mashq mahsuli boʻlishi mumkin.

Bilishda xayolning ham katta ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Xayol deganda oʻylash, fikr yuritish jarayoni tushuniladi. Xayolning tarkib topishi oʻquv faoliyatining taʼsiri va talabalari asosida amalga oshadi. Bolalarning dars jarayonidagi ishtiroki, mashgʻulotlarda boʻladigan savol-javoblar, turli xildagi oʻquv topshiriqlarini bajarish, ertak va hikoyalar oʻqishi, televedenie eshittirishlarini tamosha qilishi, kinofilmlarni koʻrishi, sayohatlarga borishi xayolni rivojlantirish vositalaridir.

Xayolning eng yuksak koʻrinishi ijodiy xayoldir. Ijodiy xayol surishga tayyor boʻlmagan oʻquvchi bilimlarini oʻzlashtirib olishda muayyan manbadan (oʻqituvchining soʻzi, darslik materiali) chetga chiqa olmaydi. Xayoli yetarli darajada taraqqiy topmagan oʻquvchi oʻquv materialini oʻrganishi uchun koʻp kuch va vaqt sarflaydi, ammo yaxshi natijaga erishmaydi.

Boshlangʻich sinflarda “Ona tili va oʻqish savodxonligi” oʻquv fanining tabiati koʻproq bolalardan ijodiy xayolni talab etadi. Chunki berilgan rasmlar yoki biror bir mavzu asosida ogʻzaki hamda yozma



matn tuzishi, biror harakatni bildiradigan predmetning nomini yoki belgisini bildiradigan, uning son-sanog'ini, miqdorini bildiradigan so'zlarni o'zaro qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashma va xulosalar chiqarish ijodiy xayol mahsuli hisoblanadi.

Ta'limning samaradorligini ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. "Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T.Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi bo'lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o'rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalarning aks etish jarayonidir".<sup>15</sup>

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo'lib, u maktabda o'qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma'lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo'lishini qayd qiladilar:

- 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur;
- 2) ijodiy tafakkur.

Reproduktiv tafakkur o'quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni

---

<sup>15</sup> Давлетшин М. Таълимнинг психологик асослари. Тошкент "Ўқитувчи", 1978, 47-бет.

tushunib olib, ogʻzaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida oʻquvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashgʻulotida oʻqituvchi oʻrni kelganda reproduktiv tafakkurga, oʻrni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish koʻradi.

Taʼlimning samaradorligi oʻquvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. “Ona tili va oʻqish savodxonligi” mashgʻulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, soʻz va qoʻshimchalarni, gap qurilishlarini oʻzaro qiyoslash; ularning oʻxshash farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh soʻz va qoʻshimchalar roʻyxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlangʻich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga oʻrgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga oʻrgatish, avvalo, oʻquvchini taʼlim jarayonining subyekti (faol ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi. Oʻquvchi taʼlim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular oʻrtasidagi oʻxshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi. Oʻquvchining taʼlim jarayonining subʼektiga aylanishi, oʻqituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning taʼsirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda oʻqituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita oʻquvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta‘lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e‘tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko‘zlagan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilimga qiziqishlari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlardan qiziqishning ikki turi bizga ma‘lum. Qiziqishning birinchi ko‘rinishi muayyan paytda, muayyan faoliyat jarayonida qo‘zg‘aladigan qiziqish bo‘lsa, ikkinchisi, maqsad qiziqishi bo‘lib, tashqi ta‘sir natijasida o‘quvchi oldiga muayyan maqsadini qo‘yib, uni shunga qiziqtirishdir. Har bir o‘qituvchi o‘z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” faniga qiziqtirish dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko‘rgazmali, aydiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg‘ulotlarining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, o‘quvchini ta‘lim jarayonining sub‘ektiga aylantirish singari omillar bilan chambarchas bog‘langan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda fanga qiziqish o‘qituvchini sevishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshida bolalar uchun eng katta obru bu oqituvchi. Bola ona tili fanidan dars beradigan o‘qituvchini sevsa, uning o‘qitadigan fanini ham yoqtiradi. O‘qituvchidan bezgan o‘quvchi uning fanidan ham bezadi. Kichik yoshli maktabxon har

qanday bilimni o'qituvchisi orqali idrok etadi. O'quvchilar o'qituvchining oliy himmat, kuyunchak, mehribon ekanligini, ularning har birini tushunish mahoratini hamda o'sib ulg'ayib, kamol topib borayotganligidan xursand bo'lish qobiliyatlarini, o'ta bilimli o'qituvchi ekanligini sezishlari kerak. Ana shundagina, o'quvchilarning sizga degan mehri tobora oshib boraveradi. Siz ularning eng yaqin mehribon kishisiga aylanasiz.

Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlashi, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tili va o'qish savodxonligini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko'maklashadi:

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmunini o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari, imlosi qiyin bo'lgan so'zlar ustida ishlash, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadigan qo'shimcha o'quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to'g'ri tashkil etadi, o'qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi va h.k.

3. . Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, "O'quvchi + o'quv topshirig'i + o'qituvchi" o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri belgilash mumkin emas. O'qituvchi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning yoshini bilish o'qituvchi va oquvchi orasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishga keng imkoniyat yaratadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi. Topshiriqlar o'quvchilarning bilim saviyasiga mos bo'lsagina u samarali bo'ladi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan qaysi yo'nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O'quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'qituvchisidan mohirlikni, o'ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta xotiralashga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo'ygan ekan, ma'lum so'z jamg'armasi bilan keladi. U oilada, bog'chada ko'p so'zlarni ishlatsa-da, hali ularning ma'nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda fanga qiziqish o'qituvchini sevishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshida bolalar uchun eng katta obru bu oqituvchi. Bola ona tili fanidan dars beradigan o'qituvchini sevsa, uning o'qitadigan fanini ham yoqtiradi. O'qituvchidan bezgan o'quvchi uning fanidan ham bezadi. Kichik yoshli maktabxon har qanday bilimni o'qituvchisi orqali idrok etadi. O'quvchilar o'qituvchining oliy himmat, kuyunchak, mehribon ekanligini, ularning har birini tushunish mahoratini hamda o'sib ulg'ayib, kamol topib borayotganligidan xursand bo'lish qobiliyatlarini, o'ta bilimli o'qituvchi ekanligini sezishlari kerak. Ana shundagina, o'quvchilarning sizga degan mehri tobora oshib boraveradi. Siz ularning eng yaqin mehribon kishisiga aylanasiz.

## **II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SO‘Z MA‘NOSI USTIDA ISHLASH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

### **2.1. So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish yo‘llari**

Zamonaviy intellektual salohiyat XXI asrni “Intellektual asr” deb nomlanishiga muhim asos bo‘ldi. Bunga sabab dunyo bo‘yicha ilm-fan va texnika-texnologiyalarning rivoji va takomillashuvi bu asrda bardavomlik kasb etmoqda. Shu sababli amaldagi ta‘lim jarayonida ta‘limning zamonaviy didaktiv asoslaridan samarali foydalanib ta‘lim oluvchilarning tafakkur qamrovi va intellektual salohiyatini muntazam rivojlantirib borishga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu borada ta‘lim oluvchilarning tafakkur qamrovini keng qilib shakllantirish negizida ularni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashda ilm-fan, texnika-texnologiyalarning istiqbolli natijalaridan foydalanish ushbu sohaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va bu orqali ta‘lim oluvchilarni kreativ qobiliyatli qilib shakllantirishga didaktiv asos ham ta‘minlangan bo‘ladi. Ta‘lim oluvchilardagi kreativ qobiliyatlar esa ularni yaratuvchilik va ijodkorlikka undashdagi fundamental-didaktiv asoslardir. Demak, amaldagi ta‘lim jarayoniga oid o‘qitish modellarini texnologik va intellektual taraqqiyot g‘oyalari bilan integratsiyalash ta‘lim oluvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tobora dolzarflik kasb etmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-fevraldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham kreativ fikrlaydigan yoshlar salohiyati va iqtidorini rivojlantirish, modifikatsiyalangan ta’lim mazmuniga yangi texnologiyalarni kiritish va bu borada innovatsion yondashuvlar lozimligi ta’kidlangan. Bu esa ta’lim oluvchilardagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli tadqiqot ishimizning ushbu qismida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini yuksaltirishga kreativ yondashuvni tadqiq etishni asosiy maqsad qilib oldik.

Ma’lumki, kreativlik ichki aqliy bir-biriga bog‘liq omillar uyg‘unligi asosidagi yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsuli bo‘lib, u insonning ma’naviy va intellektual kamolotga erishishida muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunday intellektual ijodiy mahsul yordamida inson faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish kirita bilishdek ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin. Bu esa o‘ziga xos kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda kreativ yondashuvni ta’lim oluvchilarning ko‘rib chiqilayotgan muammo yechimlaridan eng optimalini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb atash mumkin. Uning yordamida ta’lim oluvchilarni mustaqil ijodiy yondashuv negizida ko‘rib chiqilayotgan muammoni yechishning yangi variantini topishga undash jarayonini samarali tashkil etish mumkin bo‘ladi.

Tabiiyki, ta’lim oluvchilardagi kreativ qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlantirish kreativ ta’lim orqali amalga oshiriladi. Bu haqda quyidagi



manba ahamiyatlidir: “Kreativ ta’lim - bu ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, takomillashtirishga yo’naltirilgan ta’lim bo‘lib, u ta’lim oluvchidagi yaratuvchilik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiladi.

Creato - lotincha so‘z bo‘lib, u yaratuvchilik, ijodkorlik ma’nolarini anglatadi. Bularni, ya’ni ijodkorlik va yaratuvchilik metodlarini tadqiq etishni kreativ pedagogika o‘rgatadi”.<sup>16</sup>

Demak, kreativ yondashuvda eng avvalo tadqiqot obektini tanlab olishga to‘g‘ri keladi va u bo‘yicha yo‘nalishga oid mavzuni aniqlab olishga ham imkoniyat yaratiladi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda quyidagi manbadagi jihatlarga amal qilinsa, kreativ yondashuvning natijadorligi ta’minlanadi:

“Intellektual - ijodiy qobiliyatlar shaxsning ta’sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma’lumotlarga ega bo‘lishi, tafakkur o‘zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o‘ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo‘lib, u nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyat garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir”.<sup>17</sup>

---

<sup>16</sup>Хасанбоев Ж., Тўракулов Х.А., Хайдаров М., Ҳасанбоева О., Усмонов Н.Ў. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Т.: Фан ва технология, 2009, 672 б.

<sup>17</sup>Тўракулов Х.А., Тўракулова И.Х., Осланова К.С. Бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш фаолиятини юксалтиришнинг инновацион технологиялари. –Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, - Б. 148 б.

Bu manbada qayd etilgan jihatlar turli fanlarni o'qitishda qo'l keladi. Ayniqsa, bu ta'lim oluvchilarning tafakkuri yuksalishining bardavomligini ta'minlashda mustahkam didaktik asos bo'la oladi. Ana shu sabablarga ko'ra ham ta'lim oluvchilarning matematik tafakkurini yuksaltirish muammosini hal qilishga kreativ yondashuvni amalga oshirishga kirishganmiz. Bunga sabab matematika aniq mantiqiy mulohazalarga asoslangan bilimlar haqidagi ta'limotdan iborat bo'lib, u insonning aqlini o'stiradi, diqqatini rivojlantiradi, sinchkovligini oshiradi. Ko'zlangan (rejalashtirilgan) maqsadga yetish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zida algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi.

Ular bo'yicha olib borilgan mashg'ulotlarda esa kreativ yondashuvga yordam beradigan quyidagi omillarga doimo e'tibor berib borildi: qiziqishi, ya'ni o'quvchining fanni o'rganishga moyilligi, uning dunyoni bilishning asosiy manbai ekanligini anglashi; faoliyat jarayonining harakatga kelishi, ya'ni o'quvchining biror manbani anglashi uchun uning boshqa unga oid narsalarni chuqur o'rganishi kerakligini ongli ravishda anglashga harakat qilishga kirishishi; spektitsizm, ya'ni tez-tez uchrab turadigan fikrlarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqishga bo'lgan xohishi; dalillik, ya'ni ta'lim oluvchilarning bilim olishda isbotlash mantig'i va qoidalaridan foydalanish mahoratlari; xabardorlik - bu ta'lim oluvchilarga beriladigan imkoniyat bo'lib, uning yordamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborot fondining mavjudligi belgilab olinadi; strategiyalar - bu ta'lim oluvchiga izlanish (ijodiy harakat) uchun qonun-qoida, mezon va tamoyillarning mavjudligi va ulardan foydalanishga xohishi; moyillik - bu yangi bilimlarni olish natijasida ta'lim oluvchi

o‘zining olam haqidagi fikrlash usulini yangilashni (modernizatsiyalashni, innovatsiyalashtirishni) boshlashi uchun boshqalarning fikri va mulohazalarini, shuningdek, boshqa ilmiy va amaliy manbalardan olingan xulosaviy fikrlarni (pirovard natijalarni) tizimlashtira olishi va uni o‘zining faoliyati maqsad-vazifasi nuqtayi nazaridan "bir chiziqqa" joylashtira olishi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini yuksaltirishga mo‘ljallangan dars mashg‘ulotlarini olib borishda ko‘proq umumlashgan darslarga (bob yoki bo‘lim oxiridagi takrorlash uchun tayyorlangan materiallar asosida) e‘tibor berildi va ularda yuqorida ifodalangan kreativ yondashishga yordam beruvchi omillar doimo diqqat markazimizda bo‘ldi.

Kreativ samaradorlik quyidagi ketma-ketlikda aniqlab borildi:

- amalga oshirilgan kreativ yondashuv bo‘yicha foydalanilgan axborot va ijodiy xulosalar taqqoslandi;

- taxminlar va ularga mos dalillar taqqoslandi;

- sabab va oqibat aloqalari ajratilib ko‘rsatildi va h.k.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz va mashg‘ulotlar samaradorligini aniqlash ketma-ketligi bo‘yicha umumlashtirishlar orqali quyidagi natijalarga erishdik:

- pedagogik jihatdan o‘quvchida intellektni rivojlantirishga, o‘z-o‘zini anglashga intilish, ishchanlik va tartib-intizomga moyillik, yangilik yaratishga xohish kabilar paydo bo‘ldi;

- psixologik jihatdan o‘quvchilardagi irodalilikni, motivatsiya omilini, idrok qilishni, ijodiy faoliyatni, qiziqishni, ehtiyojni tarkib toptirishning elementar didaktik asoslari yaratildi;

- intellektual-ijodiy faoliyat jihatidan o‘quvchilar ongida muammoni yechishga motivatsiyali yondashish elementlari, sinfdan tashqari mashg‘u-

lotlarda kreativ yondashuvga mos mashg'ulotlarni loyihalashtirishga oid bilimlar, muammoli topshiriqlarni tuzish va ular yechimlarining eng qulayini topishga ijodiy yondashuv elementlari tarkib topdi;

- o'quvchilardagi kreativ qobiliyatning omillari bo'yicha ularda motivatsiyali omil, qobiliyat, ko'nikish, ehtiyoj, idrok qilish, ijodiy yondashuv va shu kabilar paydo bo'la boshladi;

- kreativ qobiliyatga xos asosiy xususiyatlar bo'yicha o'quvchilarda o'ziga xos tafakkur, mustaqil fikrlash, o'z fikrini dalillash, shaxsiy fikrini yuzaga chiqara olish, muayyan masala echimini topishni uddalash, obyektning ayrim qismlari birligida tasavvur qila olish, tekshirish va kuzatishga oid bilimlar, ijodiy taxmin qilish va ichki tuyg'uni ishga solish kabilar tarkib topa boshladi.

Olib borgan tadqiqotimizning natijalariga asoslanib, xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini yuksaltirishga kreativ yondashuv ulardagi kreativ qobiliyatni rivojlantirishning eng qulay variantlarini tanlash imkoniyatini beradi va ular asosida o'quvchilarning o'quv-bilish jarayonidagi kreativ qobiliyatlarini yanada yuksaltirish hamda kreativ bilim darajasini rivojlantirishga erishish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda olib borilgan tadqiqot ishi, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini yuksaltirish jarayoni bo'yicha o'quvchilardagi kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirishning turli variantlari, tashkiliy shakllari, metod, vosita va texnologiyalarining integratsiyasiga doimo e'tibor qaratish kerak.

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari

ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha

tushuntiriladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. Soʻzni kontekst asosida tushuntirish. Bunda oʻquvchilar tushunmaydigan soʻz ularga tushunarli soʻzlar qoʻllangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. Soʻz maʼnosini lugʻatdan va oʻqish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda oʻquvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, soʻz maʼnosini mustaqil tushunib olishga oʻrgatish muhim ahamiyatga ega.

3. Soʻz maʼnosini shu soʻzning maʼnodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. Soʻzni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu soʻzning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham koʻrsatish zarur.

4. Tanish boʻlmagan soʻz bilan ifodalangan tushunchani tanish boʻlgan soʻz bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgoʻy soʻzini yolgʻonchi soʻziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Koʻchma maʼnoda ishlatilgan soʻz va soʻz birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. Soʻzni oʻziga yaqin tushuncha bilan, yaʼni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan soʻzning izohi qisqa va aniq boʻlishi kerak. Masalan, oʻzboshimchalik – oʻz xohishicha ish tutish, ishni oʻzi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor – uzoq uchadigan koʻzi oʻtkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; guldon – gul solib qoʻyiladigan idish va boshq. Baʼzi soʻzlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning oʻzida donni oʻradigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xoʻjalik mashinasi;

ekskavator - bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hok.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rganagan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.<sup>18</sup>

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

## **2.2. Boshlang'ich sinflarda matn yaratish orqali o'quvchilarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish**

Ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini izchil rivojlantirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurish jarayonlariga moslashtirish, kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish va takomillashtirish, ta'lim oluvchilarni ijodiy-

---

<sup>18</sup> Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, Chirchiq. 2020, - B. 594.

intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, buning samarali shakl hamda uslublarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni ta'minlovchi normativ, moddiy-texnik va axborot bazasini yaratish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.<sup>19</sup> Shu jihatga e'tibor qaratganimizda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning nihoyatda muhim, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan dolzarb muammosi sanaladi. Uni tadqiq etishda quyidagilarga ahamiyat qaratish zarur. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar sharoitida milliy-madaniy merosga, o'quvchilarning ijodiy potentsialiga, o'qituvchining ijodiy izlanishlari va topilmasiga murojaat qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etilishida o'quvchilar tomonidan O'zbekiston hududidagi qadimiy me'moriy yodgorliklarning tarixiy-madaniy, badiiy-estetik ijodiy idrok qilinishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda milliy, tarixiy -madaniy, qadimiy me'morchilikka oid merosga, uning jahondagi ahamiyatiga, kreativ o'rganilishiga urg'u berilishi zarur. Bunda:

-o'quvchilarning intellektual-ijodiy ishlari(mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha);

-turli ijodiy topshiriqlarni bajarishga qiziqish bilan yondashishlari, qobiliyat va ehtiyojlari;

-ularning(maktabda) ijtimoiylashtirish istiqboli bilan faollashtirilishi muhim o'rin tutadi. Asosiysi, o'quvchilarning tarixiy-me'moriy inshootlarni o'rganishga nisbatan motivatsiyasini faollashtirishdir.<sup>20</sup>

---

<sup>19</sup> Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

<sup>20</sup>Адизов Б.Р. Теоретические основы творческой организации начального обучения: Автореф.дисс. ... докт.пед.наук. – Т., 2003. – 43 б.



Ularga mashg'ulotlar mazmuni, o'ziga xosligi, elast ikligi, innovatsion mohiyatga egaligi, shaxsga yo'naltirilganligi, ijodiy potentsiali, shaxsning kreativ rivojlanishi uchun istiqbolni belgilashi kabilarni singdirish lozim. Buning uchun mashg'ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, esda qoladigan, o'quvchilarning idrok qilish faoliyati esa rang-barang, ijodiy va reproduktiv bo'lishi kerak. O'qituvchi muammoning yechimiga, o'quv materialini o'rgatishga ijodiy yondashishi shart. Bunda qadimiy tarixiy - madaniy yodgorliklarni o'rganish, jumladan, tarixiy, jamoaviy-ijtimoiy, madaniy, me'moriy-badiiy, qadriyatli-estetik kabi yo'nalishlarda olib boriladi. Mashg'ulotda o'rtaga tashlangan muammoni hal qilishda intellektual-ijodiy ishlar jarayonining ayrim muhim komponentlariga alohida e'tibor beriladi. Bular: muammoni idrok etish, ularni anglash va tushunish; natijani taxmin qilish va aniq tasavvur etish; yechimini izlash; natijaga erishish; xulosa va yakuniy xulosa kabi komponentlardir.

O'quvchilarining intellektual-ijodiy ishlarini baholashda asosan quyidagi mezonlarga tayaniladi: yangiligi va o'ziga xosligi, ishonchliligi va aniqdigi, mantiqiy izchilligi, tafakkurning ijodiy darajasi, matnning adabiy-tahririy rasmiylashtirilganligi, illyustrativligi, sub'ektiv tafakkurga, o'z fikri va ob'ektiv baholash ko'nikmasiga egaligi, ishi yuzasidan munosabat bildira olishi.<sup>21</sup>

O'quvchining sub'ektiv tafakkurga, o'z fikri va ob'ektiv baholash ko'nikmasini egallashida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltiruvchi konsultativ mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Bu xil mashg'ulotlar "Kreativ o'z-o'zini o'stirishni rejalashtirish", "Intellektual-ijodiy qobiliyatlarni

---

<sup>21</sup> Касымов К. Художественно-эстетическое воспитание обучающихся в процессе кружковых занятий народной росписью по дереву в общеобразовательных школах Узбекистана: Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1983. – 16 б.

rivojlantirish”, “Seminar, konferentsiyaga tayyorgarlik ko‘rish”, “Ish natijalarining muvaffaqiyatli chiqishi sirlari” kabi mavzularda o‘tkazilishi mumkin. O‘quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ faoliyati muammoning amaliy tadqiq qilinishida muhim natijali bosqich hisoblanadi.

Intellektual-ijodiy faoliyat tuzilmasidan quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatamiz, Bular:

I. Motivlar asosida belgilangan g‘oya-maqсад, faoliyat turini tanlash, uni tashkil etish shaklini topish, ishlash uchun sharoit yaratish.

II. Rejani (g‘oyani, mo‘ljalni) amalga oshirish.

III. Maqsadga erishishda o‘z-o‘zini nazorat qilish.

IV. Intellektual-ijodiy faoliyatni tahlil qilish, tavsiflash va baholash.

Bu jarayonda o‘quvchilarga taklif qilinayotgan topshiriq va ish mavzulari ko‘p sonli va ko‘lamli, turlari bo‘yicha rang-barang va mazmuni bo‘yicha ko‘p variantli bo‘lishi zarur. Ular intellektual-ijodiy yondashuvni, aniq tarixiy-madaniy bilimlarni va albatta, jiddiy munosabatni talab qiladi. Albatta, o‘z ijodiy mahsulotini turli ijtimoiy-kommunikativ faoliyat jarayonida amalga oshirish orqali o‘z-o‘zini kreativ namoyon qilish va jamoadagi o‘z o‘rnini belgilab olishdan

intellektual-ijodiy qanoat hosil qilishga olib keladi. Bu xil topshiriq turlariga “Sharq buyuk mutafakkirlari yosh avlodning ijodiy rivojlanishi to‘g‘risida”, “Ijodiy shaxsning zamonaviy jamiyatdagi roli va o‘rni, nufuzi va obro‘si” mavzularida yozdiriladigan matnlarni kiritish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi,

baholashi, tahlil etishiga qaratilgan yozma referatlar ham topshirilib, ular “MEN”–kreativ shaxsmi?”, “Mening intellektual -ijodiy qobiliyatlarim”, “Qanday qilib men O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini

o‘rganmoqdaman?”, “Mening kreativ o‘z-o‘zimni o‘stirishim” kabi mavzularda amalga oshiriladi. Suhbat, hikoyani tinglash asosida beriladigan topshiriqlar asosiy, muhimni ajratish, bayon qilinlar bo‘yicha xulosani umumlashtirish; o‘z taassuroti to‘g‘risida hikoya qilish; mavzuni bayon qilishning jadvali, rejasi, mavzusini tuzish, konspekt yozish kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. O‘quvchini fikr yuritishga yo‘naltiruvchi topshiriqlarda:

“Tafakkurni ayniqsa, nima faollashtirdi? Nima yoqdi, o‘chmas iz qoldirdi? Nimaga hayron qoldik? Nima to‘g‘risida yanada kengroq bilim olishni istadik? Qanday muammolar, qanday savollar paydo bo‘ldi? Aqlning ravshanlashishi, faraz, “Ongida fikrning chaqmoqdek chaqnashi” sodir bo‘ldimi? O‘z mulohazasi, fikri, farazi paydo bo‘ldimi? Nimanidir “tadqiq qilish”, izlash istagi yuzaga keldimi? Nima ustida “bosh qotirishni” xohladi?”, “Emotsional-idrok qilishga oid qanoatlanish hosil qildimi?”, “Ma‘ruza (suhbat)ni qismlarga ajrating yoki savollarni ma‘ruza materiali bo‘yicha guruhlashtiring. Tarixiy -madaniy yodgorlik yana qaysi nuqtai nazardan ko‘rib chiqilmagan?”, “Mashg‘ulotning ko‘rgazmali-illyustrativ jihatlaridan mamnunmisiz(bu to‘g‘rida mulohaza yoki tavsiyalar bera olasizmi)?”, “Quyidagilarni yon daftaringizga qayd etib qo‘ying: suhbatning asosiy so‘zlarini; yangi tushuncha va tasavvurlarni”, “Suhbatda muhokama qilingan obraz to‘g‘risida sizning tasavvuringiz qanday bo‘ldi?”, “ Suhbat jarayonida o‘rtoqlaringizning kreativlik faolligini kuzatdingizmi?” kabi savol-topshiriqlar taqdim etiladi.

Tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi topshiriq va matnlar yozdirish, afsona va rivoyat kabilarni ijod qilishga qaratiladi. “Tarixiy-madaniy yodgorliklarni kreativ o‘rganish–shaxs rivojlanishi

uchun zaruriyat”, “O‘zbekistonning qadimiy me‘morchilik yodgorliklari”, “O‘zbekiston hududidagi qadimiy arxitektura me‘morchiligi xalq yuksak madaniyatining isbotidir”, “O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari jahon e‘tirofiga sazovor bo‘lishga loyiqdir”; “O‘zbekiston hududidagi mening sevimli arxitektura mo‘‘jizam”, “Qadimiy me‘morchilik san‘ati bilan “uchrashuv” to‘g‘risida esdaliklar”, “O‘zbekistonning tarixiy - madaniy yodgorliklariga mening munosabatim” kabi mashg‘ulot mavzulari orqali o‘quvchilar qadimiy me‘moriy yodgorliklar to‘g‘risida mulohaza yuritish va xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi. Ularga “O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklari–eng buyuk milliy meros”, “O‘zbekiston tarixiy-madaniy me‘morchilik merosi–jahon boyligi” mavzularida ma‘ruzalar; “Samarqand (Buxoro, Xiva) tarixi”, “YuNESKO muhofazasida bo‘lgan O‘zbekiston hududidagi tarixiy -madaniy yodgorliklar”, “Samarqand (Buxoro, Xiva) – qadimiy tarixiy-madaniy shahar”, “Samarqand (Xiva, Buxoro)ning eng muhim me‘moriy yodgorliklari”, “Amir Temur – Samarqand binokori” mavzularida ma‘ruzalar tayyorlash; “Samarqanddagi Bibixonim madrasasi to‘g‘risida”, “Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi”, “Afrosiyob qazishmalarida” mavzularida hikoya va rivoyatlar yozish; “Samarqanddagi Bibixonim madrasasi qurilishi tarixi”, “ Buyuk Amir Temur maqbarasi tarixi”, “Samarqanddagi qadimiy Registon maydoni tarixi”, “Samarqand yaqinidagi qadimgi Afrosiyob shahri qazilmalari tarixi” kabi mavzularda afsonalar to‘qish yoki xalq og‘zaki ijodi materiallarini to‘plash vazifalari topshiriladi.<sup>22</sup> Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning tuzilmaviy-mazmundor asosida motivatsion, tashkiliy-ko‘rsatmali, shaxsiy-

---

<sup>22</sup>Формирование у обучающихся эстетического отношения к художественному наследию: Методик тавсиялар. – Т.: Т.Н. Кори-Ниёзий номидаги УзНИИПН, 1987. – 138 б.

mo'ljalli, kreativ - intellektual-ijodiy, shaxsiy-ijodiy, axborot-anglash, aks ettirish - intellektual-ijodiy, ijodiy-tasviriy hamda tarjimaga oid, o'z-o'zini ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini takomillashtirish kabi komponentlarga urg'u beriladi.<sup>23</sup>

O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish lozim.

– o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishga rasmiy-maqomli urg'u berish lozim;

– ushbu muammoga o'quv muassasalari ma'muriyatining e'tiborini qaratishga erishishda quyidagi faoliyat turlarini qo'llash: o'qituvchilarni zaruriy tayyorgarlik bilan ta'minlagan holda, tashabbuskor tadqiqotchilarni rag'batlantirish; ushbu muammoni davlat ahamiyatiga molik, zamonaviy jihatdan dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yish va hal qilish zarur;

– umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulot va tadbirlarni faollashtirish kerak;

– pedagoglar, olimlar, metodistlar, ilg'or o'qituvchi, amaliyotchi, pedagogika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining turli yo'nalishlari bo'yicha nazariy-pedagogik asoslarni ishlab chiqish hamda ularni ilmiy jihatdan asoslashga e'tibor qaratishlari zarur;

– pedagog kadrlar malakani oshirish va qayta tayyorlashni takomillashtirish tizimida, ta'limning barcha tuzilmalarida o'quvchilarning

---

<sup>23</sup>Нишонова С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: Пед. фанлари докт. дисс. автореф. – Т., 1998. – 37 б

kreativlik qobiliyatlarini rivojlanishi bo'yicha maxsus kurslarni tashkil qilish kerak.

– O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida o'quv faoliyatining turli jabhalarida o'quvchi yoshlarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o'rganish va hal etishga qaratilgan tizimli tadqiqotlarni amalga oshirish lozim. Bunda muayyan predmetli tavsiyalar, unda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mualliflik dasturi doiralarida muammo yechimini topishning metodologik-direktiv, psixologik-pedagogik, nazariy-pedagogik hamda amaliy yondashuvlariga urg'u berish zarur.

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi-o'quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanlikni, ijodkorlikni, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish,yaratishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak. Bugungu kunda yoshlar tarbiyasiga alohida yondashuv katta samaralar bermoqda.

Ayniqsa, "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari"to'g'risidagi 2019 yil 3-maydagi Prezident qarori <sup>24</sup>yoshlar tarbiyasida ularni ijodkor va kreativligini o'stirishda bajarilayotgan ishlarining dasturiamal bo'lib kelmoqda.

"Creato"- lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik,ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, o'quv -biluv jarayonida mas'uliyat, yaratuvchanlik ijodkorlik kabi a'nolarni beradi.Ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini o'rganish kreativ pedagogika deyiladi. Shuningdek,

---

<sup>24</sup> "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2019-yil 3-maydagi Prezident qarori.

kreativ pedagogika-ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratish, o'rganishni tushunamiz.

Ta'lim jarayoni o'quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan loyihalar asosida jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega, o'quvchilarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi. Ijodkorlik va madaniyatlilik o'quv faoliyatda tizimli olib borilishi ijodkorlikka asos bo'ladi. O'quv jarayonidan tashqari vaqtda "texnik ijodkorlik asoslari" ilmiy izlanish yo'nalishidagi to'garaklar tashkil etilsa, o'quvchining loyihalash ijodkorligi oshadi, bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo'naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi.

Bizga ma'lumki, tarixan ta'lim ikki madaniyat chegarasida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi – gumanitar, badiiy yo'nalishda bo'lsa, ikkinchisi – ilmiy va texnik yo'nalishdadir. Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish kontseptsiyasida texnika fanini insonparvarlashtirish va nazariy muhitda rivojlanishining asosi qilib olingan. Aniq fanlarning rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot informatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'lash yaxshi natijalar bermoqda.

O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o'quvchining o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish extiyojini tug'diradi. Oqituvchi bolaning

o'quv jarayonida kreativ yo'naltirish uchun: o'quv materialini berib borish, qo'shimcha materiallarni taklif etish, izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida o'z extiyoji, xoxishi orqali yangilik sari

yetaklash. O‘quv jarayonini ham shunday o‘zgartirish kerakki, unda o‘quvchi o‘quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o‘quv materiali o‘sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

O‘quv materiallariga yangi qo‘shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklifi orqali o‘quvchini ijodiy fikrlashga qiziqishini oshirish kerak. Demak, bola faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash, har qanday muammoli vaziyatni o‘z vaqtida hal etsa, o‘quvchi uchun asta – sekin ko‘nikma va malakaga aylana boradi.

Evristik ta’lim metodining keng tarqalishi bizga XX asrning ikkinchi yarmidan kela boshlagan. Evristika”–grekcha so‘z bo‘lib, “heurist” so‘zi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma’nolarini beradi. Pedagogikada o‘quvchi fikrini rivojlantiruvchi, maqsadli, sermahsul ishlanmalar asosida qo‘llanilgan. Ko‘proq bu usulni birinchilardan bo‘lib, matematik olimlar o‘quvchilar iste’moliga kiritganlar. Ko‘pincha uni “matematik yechish san’ati” metodlari shaklida qo‘llash ma’qul ko‘rilgan. Keyinchalik uni boshqa o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonida ilg‘or, universal metodlar sifatida ham qo‘llanilgan.

Bu muammo bilan o‘z davrida faylasuf askar, grek matematigi Papi Aleksandriyskiy, keyinchalik fruntsuz faylasufi va matematigi R.Dexretler shug‘ullanib, evristik metodlar universal metoddir, degan xulosaga keldilar. O‘quvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik metodlar asosidagi ta’lim alohida o‘rin tutadi. “Umuman evristik ta’lim juda uzoq antik zamonlardan beri qo‘llanib kelinadi. Birinchi bora ta’lim jarayonida qo‘llanilganda – evristik suhbatlar yo‘naltirilgan, ketma – ket berilgan savollarga javob jarayonida shakllangan, savollarga javob



berishda javoblar o'quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.

Ilg'or metod sifatida uni Yan Amos Komenskiy ta'lim tizimiga kiritish zarurligini uqtirgan. U evristik usuldan ta'lim jarayonida foydalaniladi, shaxsning o'ylashi, ijodiy fikr yuritishi zamirida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi, deb ta'rif beradi. Evristik ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali sifat va samaradorlikni oshirishda nimalarga erishish mumkin: -evristika asosidagi ta'lim o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, o'quvchining o'zi shaxsan izlanishi, o'rganishi, o'ylantirishiga asoslangan, unda izlanish, qidirish, topish orqali ongli o'zlashtirishga olib keladi. O'quvchining ijodiy fikrlashi, muammolarning yechimini topishi, uni intellektual salohiyatini oshiradi, individual ishlash orqali esa o'z kuchiga ishonchining ortib borishi ijobiy natijalarga erishish omili hisoblanadi.

Har qanday so'zlarni biriktirib so'z birikmasi yoki gap hosil qilib bo'lmaganidek, har qanday gaplarni biriktirib, matn hosil qilib bo'lmaydi. Matnda gaplar o'zaro mazmuniy aloqaga kirishgan bo'lishi, kichik bir mavzu bir gap doirasida emas, bir necha gaplar orqali yoritilishi shart.

Matnlarda gapga xos belgilar bilan birga, alohida o'ziga xos xususiyatlar ham kuzatiladi. Uning komponentlari orasidagi aloqalar tekshirilganda, shuni ko'rish mumkinki, matnni tashkil etuvchi mustaqil gaplar faqat odatdagi sintaktik aloqa vositalari – bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamidagina emas, balki boshqa turdagi sintaktik aloqa vositalari (masalan, olmoshlar, sinonimlar) orqali ham bog'lanishi mumkin.

Matn gapga nisbatan to‘liq tugallangan nutq ko‘rinishi hisoblangani uchun, u o‘zida ma’lumotlarni mujassam etadi, gapda esa ana shu ma’lumotlardan bittasi ifodalangan bo‘ladi.

O‘zbek tilida nisbiy mustaqil gaplarni bog‘lovchi – bog‘liq nutq – matnni shakllantiruvchi vositalar tizimi haqida M.To‘xsonov va M.Hakimovlarning nomzodlik dissertatsiyalaridan ma’lumot olish mumkin.

O‘zbek tilida matnlarni shakllantiruvchi vositalar doirasi ancha keng bo‘lib, ular orasida eng unumdorlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin.

Leksik vositalar. Sintaktik vositalar. Stilistik vositalar.

Matn shakllanishida muhim funktsiya bajaruvchi leksik vositalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Kishilik va ko‘rsatish olmoshlari. Matnlarni shakllantirishda olmoshlarning roli naqadarkattaligini e’tiborga olib va ta’kidlab, ayrim tilshunoslar ularni “biriktiruvchi yagona vosita” deb baholaydilar.

Olmoshlar yordamida shakllanish matnni tashkil etuvchi komponentlarning birinchisi tarpkibida qo‘llangan ot turkumiga xos so‘zning keyingi komponentlarda olmosh bilan almashtirilishi natijasida yuzaga chiqadi.

2. Kontekstual sinonimlar. Kontekstual sinonimlar yordamida shakllanadigan matn komponentlarining sintaktik aloqasi bir xil so‘z takrori orqali ifodalanmay, balki ana shu so‘zning sinonimlari yordamida yuzaga chiqadi. Sinonim so‘zlar leksik ma’nosining yaqinligi bilan matn tarkibidagi komponentlar semantikasi, strukturasi jihatidan o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatan holda, bir narsa-hodisa haqidagi tafsilotlarni umumlashtirishga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu

o‘rinda sinonimiya hodisasi keng ma’noda tushunilib, bir so‘zni boshqa bir so‘z bilan uning

asosiy-yetakchi ma’nosiga putur yetmagan holda almashtirish imkoniyati mavjudligi nazarda tutiladi.

Sinonimiya hodisasi asosida shakllanadigan matnlar silliq, qaytariq so‘zlardan holi bo‘lib, turli ekspressiv-emotsional ottenkalarni ifodalash maqsadida qo‘llaniladi.

3. Bir gap doirasida ma’nosi oydinlashmagan so‘zlar. Nutq jarayonida narsa-hodisa haqidagi fikr bir gap doirasida nisbatan tugallanmay, oydinlashmay qolishi mumkin. Ana shunday holatlarda muallif yoki so‘zlovchi o‘sha narsa-hodisa haqidagi fikr-mulohazasi, ma’lumotlarini to‘laroq ifodalash uchun yana qo‘shimcha nisbiy mustaqil gaplardan foydalanadi – bir narsa-hodisa to‘g‘risidagi semantik jihatdan bir mavzu atrofiga jipslashgan gaplarni ketma-ket qo‘llaydi. Natijada yangi bir gaplar guruhi – matn shakllanadi.

Matn shakllanishida ishtirok etuvchi sintaktik vositalar sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi:

1. Mustaqil gaplar kesimlarining shakl va mazmuniy birligi. Narsa va hodisalarning xususiyatlarini bir mazmuniy planda tasvir etishda, asosan, fe’l kesimlarining bir xil zamon shakllaridan foydalaniladi. Bular, ko‘pincha, o‘tgan zamon fe’lidan iborat bo‘ladi. matn tarkibiga kiruvchi nisbiy mustaqil gaplarning shu sintaktik konstruktsiya komponenti bo‘la olishining eng birinchi sharti fe’l-kesimlarining bir xil zamon ko‘rinishida bo‘lishi hisoblanadi. Shuning uchun ham, fe’l-kesimlarning shakl va mazmuniy birligi matnning sintaktik qurilishida eng muhim vosita

sanaladi. Agar matn komponentlaridan birining kesimi shakli jihatidan o'zgartirilsa, matnning semantik va struktural birligiga putur yetadi.

2. Mazmunan izoh talab qilinadigan bir sostavli gaplar. Matnning shakllanishida bir sostavli gaplar, ayniqsa, nominativ (atov) gaplarning roli kattadir. Ma'lumki, nominativ gaplar narsa va hodisalarning zamon va makonda mavjudligini tasdiq etish yo'li bilan ko'rsatuvchi bir yoki birdan ortiq so'zlarning birikmasidan tashkil topadi.

Bir sostavli gaplar nisbiy tugal mazmun va tugal intonatsiyaga ega. Shunga qaramay, ular mazmunan kengayish-izohni talab etadi. Izohlash funksiyasini esa kamida bir yoki undan ortiq gaplar bajarishi mumkin.

3. Kirish bo'laklar, kirish birikmalar, kirish gaplar. Mavjud adabiyotlarda kirish bo'laklar gap bilan hech qanday sintaktik aloqaga kirishmaydi degan fikrlarni uchratamiz. Bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ma'lum bir ma'noda kirishlar ham gapning bir bo'lagi. Aks holda, gap tarkibida qo'llanilmasligi kerak edi. Kirish bo'lak va kirish konstruksiyalar nutq – matnning shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi, grammatik vosita vazifasini bajaradi.<sup>25</sup> Kirish bo'laklardagi bu xususiyat tilshunoslar tomonidan ta'kidlab

ko'rsatilgan.

Matnlarning shakllanishida kirish bo'laklarning, umuman, kirish konstruksiyalarning qo'llanilishi alohida xususiyatga ega. Bu, ayniqsa, ilmiy va ilmiy-ommabop nutq matnlari uchun xarakterlidir. Muallif o'z fikrini bayon etar ekan, nimanidir inkor etadi, nimanidir tasdiqlaydi – voqelikka o'z munosabatini bildiradi. Demak, nutq jarayonida

---

<sup>25</sup> Nurmanova D.A., Xusanboyeva Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matn tuzishning birlamchi vositalarini o'rgatish // Бошланғич таълимда она тили, математика ўқитишнинг долзарб муаммолари республика илмий – амалий анжумани материаллари. IX чиқиш. Андижон, 2020, 56-бет.

kirishlarning qo‘llanishi zaruriyatga aylanadi. Ularning qo‘llanishi matn tarkibidagi nisbiy mustaqil gaplarning ham grammatik, ham semantik jihatdan yaxlitligini ta’minlab turadi.

Matn shakllanishida turli til va nutq birliklari maxsus stilistik vosita sifatida faol ishtirok etadilar. Tilshunoslar tomonidan matn shakllanishida ishtirok etuvchi stilistik vositalar sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. Leksik-grammatik takror. Matnlarning shakllanishida uning birinchi komponentida fikr qaratilgan predmet ma’nosini ifodalovchi so‘zning keyingi komponentlarda leksik material jihatdan o‘zgaragan, ammo grammatik shakli jihatidan o‘zgarishi mumkin bo‘lgan holda takroran qo‘llanishi alohida ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, bunday usulda shakllanadigan matnlarda komponentlarning har birida bir leksemaning u yoki bu grammatik shaklda takror qo‘llanilishi kuzatiladi.

2. Poetik figuralar. Tilimizda badiiy nutqning ta’sirchanligini oshirib, emotsionallik hosil etadigan, o‘ziga xos intonatsion yaxlitlik ifodalovchi shunday vositalar borki, ular uslubshunoslikda poetik vositalar – figuralar atamasi ostida o‘rganilib kelinadi. Bunday vositalar nutqni ta’sirli va jozibali qilish bilan birga, fikrni tinglovchiga tez, qulay va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Fikrni tinglovchiga tez, qulay va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Ana shunday uslubiy vositalar-figuralardan matnlarni shakllantirishda ham ozmi-ko‘pmi foydalaniladi.

Matnning yaxlitligini ta’minlovchi, uni mustaqil sintaktik konstruktsiya sifatida shakllantiruvchi formal (kogeziyon) vositalar tizimi mavjud. Bu vositalar matn qismi (komponent)lari hisoblangan nisbiy mustaqil gaplar orasidagi aloqadorlikni ta’minlab turuvchi vositalar sifatida ahamiyatlidir. Bu formal vositalarning har biri matn tarkibida

o‘ziga xos funktsiya bajaradi. Ularning matn tarkibida qo‘llanishi tasodifiy hol bo‘lmay, ma‘lum lingvistik qonuniyatlar talabi asosida yuzaga chiqadi. Shunisi ahamiyatliki, tarkibida bunday vositalar ishtirok etgan nisbiy mustaqil gaplar mazmunidan ham matn tarkibida o‘zidan oldin yoki keyin kelgan gap mazmunidan kelib chiquvchi aloqadorlik sezilib turadi. Nisbiy mustaqil gaplar orasidagi mana shu aloqadorlik evaziga bog‘liq nutqning ifoda vositalari – matn va uning eng yirik birligi matn shakllanadi. Matnning istalgan ko‘rinishida shakllantiriladigan vositalarning u yoki bu turi ishtirok etadi. Shuning uchun ham sintaktik konstruktsiyalarning boshqa turlari – so‘z birikmasi, gap va uning turlarida bo‘lgani kabi matnlar tarkibida ham, uning shakllanishida ham ma‘lum sintaktik qonuniyatlar amal qiladi. Bu esa matnning tilshunoslikning sintaksisi sathining yuqoridagi bosqichida o‘rganiluvchi murakkab sintaktik konstruktsiya ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonining bosh vazifasi mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bu jarayonda ona tili ta‘limining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki, narsalarni idrok etish, atash va ulardan nutq jarayonida unumli foydalanish nutq birliklari, aniqrog‘i, so‘z orqali amalga oshiriladi.

Hammaga ma‘lumki, o‘quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga o‘rgatish boshlang‘ich ta‘lim bosqichida boshlanadi. Alifbo darslarida o‘quvchilarning savodi chiqarilgach, “Ona tili” fanida so‘zlar, ularning xususiyatlari, so‘zlarni bir-biriga bog‘lash, gap va matn tuzishga o‘tiladi.

Mazkur fan doirasida o‘quvchilar so‘zlar dunyosiga sayohat qiladilar, so‘zlarning bir-birlaridan farqini topishga o‘rganadilar, ular o‘rtasidagi

o'xshashlik, qarama-qarshilik, shakldoshlik munosabatlariga diqqatini qaratadilar. Eng keraklisi, nutq jarayonida qaysi so'zdan foydalanish kerakligini topishga odatlanadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda so'zlarni boshqa so'zlar qurshovida, ya'ni matn ichida ishlata olish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish ularning hodisalarni kuzatish, anglash, analiz va sintez qilish, tanlash, guruhlash kabi qobiliyatlarini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.<sup>26</sup>

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnda nazarda tutiluvchi quyidagi to'rt narsani o'rgatish kerak.

1. Gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. 2. Gaplar ketma-ketligi ta'minlangan bo'lishi shart. 3. Matn yaxlit birlikdan iborat bo'ladi. 4. Matnlar og'zaki yoki yozma ko'rinishda qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, matnlarning turlari haqida ham dastlabki tasavvurlarni uyg'otish o'quvchilarning tafakurini o'stirishda alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Boisi matn turlari o'quvchilarning tevarak olam, unda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabati, ulardan olgan taassurotlari, xulosalari asosida shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matnidan yaxshi xabardor bo'lgan taqdirdagina o'zaro aloqa-aralashuvlarda faol qatnasha oladilar va o'z fikrlarini boshqalarga erkin yetkazish malakasiga ega bo'ladilar. Masalan, Rauf Tolibning "Qora dog'" hikoyasida shunday tasvir bor. "Ufq qizarib, tog'lar osha ko'tarilgan quyosh butun borliqni oltin shu'lalariga ko'mib yubordi. Qorli cho'qqilar

---

<sup>26</sup>Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent: Fan, 2008. – 8-bet.

yaraqlab ketdi. Maysa va gul yaproqlarida shabnam injudek yaltillar, ming xil anvoyi chechaklar quyosh shu'lalarida rango-rang tovlanardi".<sup>27</sup>

Ko'rinib turibdiki, matn kuzatishga asoslangan. Tabitani kuzatganing sari uning sirlari birma-bir ochila beradi. Mana shu hikmatni o'quvchilarga singdirish orqali ularning qalbini go'zallashtirish, tabat go'zalliklaridan bahra olishga chorlash mumkin. Ikkinchi tomondan esa bu kabi matnlarda qo'llagan sifatlashlar, o'xshatishlar, jonlantirishlar va hokazolarga e'tiborni qaratib, o'quvchilarni so'z tanlashga odatlantirish, so'zning qadrini bilishga undash mumkin.

Aslida, har bir o'quvchida bolalarga xos kuzatish imkoniyati yashiringan bo'ladi. Kattalar ilg'amagan jihatlarni ular osongina topishi va o'zlari tuzgan matn orqali suhbatdoshlariga yetkazishi mumkin. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat hodisalarini kuzatishga va ular asosida tasviriy matn yozishga da'vat etish darkor.

Nosir Fozilovning "Insho" asaridan olingan "Juman akam otiga minib keldi. Olapar ham uning ketidan ergashdi. Qo'zi-uloqlarga bir o'zim qarab qoldim"<sup>28</sup> ko'rinishidagi matnlar hikoya matni sanaladi. O'quvchilarga bu kabi matnlarni o'rgatish ularning og'zaki nutqini shakllantirishda qo'l keladi. O'quvchilar o'zlari guvoh bo'lgan yoki hayotida ko'rgan -bilgan voqealarni hikoya qilishga hamisha urinib ko'radilar. Faqat ularning hikoyalarini eshitish, so'zlarni qo'llashdagi xatoliklarni ilg'ash va to'g'ri yo'lga olib turish kerak. Shundagina o'quvchilarning nutqi barkamol bo'lib boradi.

"Ona tili" darslarida muhokama ko'rinishidagi matnlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishda muhim ahamiyat kasb

---

<sup>27</sup> Kitobim – oftobim. Sinfдан tashqari o'qish. 2. Toshkent: Qaldirg'och, 2019. – 95-96-betlar.

<sup>28</sup> Kitobim – oftobim. Sinfдан tashqari o'qish. 3. Toshkent: Qaldirg'och, 2019. – 21-bet.



etadi. Bunday matnlar oʻrtaga tashlangan mavzuning dolzarbligi, taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Maslan, Oʻktam Usmonovning “Chumchuq bola” hikoyasida keltirilgan quyidagi gap asosida oʻquvchilarning tabiatga munosabatini muhokama qilish mumkin. “Boboxon chumchuq bolani rosa qiynadi: suvga solib

suzdirdi, ikki qoʻli bilan qanotlarini yoyib, hilpiratdi...”<sup>29</sup>

Hikoyada tasvirlangan Boboxonning xatti-harakati toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini oʻrtaga tashlash va oʻquvchilardan fikrlar olish kerak. Qushlarni va hayvonlarni tutish, qiynash, nobul etishning yomon illat ekanligini tushuntirish lozim. Bunday muhokamalar yordamida ham oʻquvchilarning fikrlash qobiliyati oʻstiriladi, ham ularda ekologik madaniyat shakllantiriladi.

Umuman olganda, oʻquvchilarni matn tuzishga oʻrgatish ona tili darslari samaradorligiga jiddiy ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

### **2.3. Soʻz maʼnosi ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini mustaqil fikrlashga oʻrgatish orqali takomillashtirish**

Har qanday jamiyatning taqdiri unda yashaydigan insonlar tomonidan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qaʼriga tortish ham odamning qoʻlida. Shuning uchun ham jamiyat aʼzolari, ayniqsa, oʻsib kelayotgan avlodning maʼnaviy kamoloti bugungi kunda oʻta dolzarb masalaga aylangan. Taʼlimda “Milliy oʻquv dasturi”ning qabul

---

<sup>29</sup> Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari oʻqish. 1. Toshkent: Yangiyoʻl poligraf servis, 2019. – 89-bet.

qilinishi ham odam omilining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganidan dalolatdir.

Bu hujjatlarda o'quvchi shaxsining aqliy va ma'naviy kamoloti birinchi o'ringa chiqarildi. Ta'lim konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, avvalo, "mustaqil fikrlash" tushunchasi nima ekanligi hamda uning barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish muhimdir. Tafakkur jarayoni, xususan, uning mustaqil fikrlash turi haqida psixologlar, pedagoglar turli daraja va miqyosda o'z qarashlarini bayon etganlar.

Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur - odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari yetarli bo'lmay qoladigan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur - aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliги hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi.

Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o'rganishda o'zidan oldingi qarashlar, tushunchalar, farazlar, chiqarilgan xulosalar hamda

qabul qilingan qarorlarning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa- hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar, xossalar, xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog‘lab yoki ajratib turuvchi jihatlar hamda ularning faoliyati mexanizmlarini anglab etadi. Bu haqiqatni Alisher Navoiy bundan necha yuz yillar ilgari: “Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”,<sup>30</sup> - deya ifodalagan.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo‘lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo‘ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko‘rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o‘ziga xos tarzda ta’sirlanadi, xulosalar chiqaradi.

Ruhiyat bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarning dalolat berishlaricha, inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo‘lgan intilish, ichki ehtiyoj, ya’ni motivdir. Usiz insonda fikrlash paydo bo‘lmaydi.

Fransuz faylasufi Dekart: “Men fikrlayapman, demak men mavjudman”<sup>31</sup>, - degan g‘oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning odamligi belgisi sifatida yetakchi o‘ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning odam ekanligini fikrlashchalik asoslab berolmaydi. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyatdir. Fikrlash insonning

---

<sup>30</sup> Аlisher Navoiy. Танланган асарлар. 20 жилдлик. 8-жилд. Ҳамса: Фарҳод ва Ширин. - Т.: Фан, 1991. – Б.122.

<sup>31</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 242.

aqlan va ruhan sogʻlomligining asosiy belgilaridir. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

“Fikrlash jarayoni, - deb yozadi L.Vigotskiy, - bolaning ota - onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola “yutib”, oʻzicha “hazm qila” boshlaganidan soʻng shakllanadi”.<sup>32</sup> Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita oʻz yoʻnaltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega boʻlganda, bola 5-6 yoshlarga yetganda mustaqil faoliyatga aylanadi. Fikrlashning mustaqilligi uning yuqorida sanalgan shakllaridan biri sifatida kishi shaxsiyati va siyrati, ichki “men”i bilan bogʻliqdir.

Demak, umuman, fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini oʻzgalarnikiga oʻxshamagan yoʻsinda, o ziga xos yoʻl bilan bilib oladi. Olib borilgan kuzatishlarga tayanib, mustaqil fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: mustaqil fikrlash - insonning oʻz oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, oʻz intellektual imkoniyati darajasida turli yoʻl, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir.

Maʼlum boʻlishicha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida aks etadi. Kishi fikri mustaqilligining belgilaridan biri tashabbuskorlik insonning oʻz oldiga aniq maqsad va vazifalar qoʻyishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo

---

<sup>32</sup> Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Просвещение, 1991. - С. 90.

Ilgan usul hamda vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo'l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko'rinadi. Aqliy faoliyat tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo'ladi.<sup>33</sup>

Ma'lumki, tafakkur faqat ta'lim jarayomda shakllantirilmaydi. Inson faqat ta'lim-tarbiya muassasalarida fikrlashga o'rgatilmaydi. U har bir ruhan soglom insonda tabiatan mavjud bo'lgan aqliy-jismoniy hosiladir. U har kimda o'ziga xos tarzda, o'z intellektual darajasida mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasim tarbiyalash, ma'lum yo'nalishini belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin. O'quvchi fikrining ta'sirchanligi, ehtiyotkorligi, harakatchanligi yoki faoliyatsizligi, o'sish-rivojlanishi uning ta'lim jarayonida shakllantiriladigan sur'ati va sifatiga ham bog'liq. Inson fikrlashining hissiy, obrazli, mantiqiy salmog'i tafakkur jarayonining rivojlanish sur'ati bilan qanchalik aloqador bo'lsa, uning sifat yo'nalishlari bilan ham shunchalik bog'liq.

Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday fikr sermahsul, samarali hisoblanadi. Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarning kuchliligi) tafakkur mustaqilligi darajasini o'lchash mezoni bo'lib xizmat qiladi.<sup>34</sup>

---

<sup>33</sup>Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. Toshkent, Innovatsiya-ziyo. – B. 140.

<sup>34</sup>Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. Toshkent, Innovatsiya-ziyo. – B. 141.

Ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o'zi tomonidan kuzatilmaydi. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda ham fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish o'qituvchining vazifasidir. Buning uchun o'qituvchidan ziyraklik, ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi.

Har bir o'quvchi yosh bosqichlariga ko'ra turfa qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yoshida turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayonida darsga tegishli bo'lmagan biror qiziqarli hayotiy mavzu va hodisalar, kino yoki futbol o'yinlari kabilar muhokama qilinganda o'quvchilarning ko'p narsa bilishlari ayon bo'ladi. Bu mazkur hodisalar o'quvchilarning o'zlari uchun bevosita qiziqarli bo'lganidan dalolatdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "O'qish savodxonligi" darsliklaridagi o'quv materiallari bolalarning tabiati, yosh xususiyatlariga mos va qiziqarli bo'lishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar biri ikkinchisiga o'xshamaydigan tarzda tuzilishi, ularning mantiq asosiga qurilishi, o'quvchilardan mustaqil fikr- mulohazalar talab qilishi o'quvchilarni faollashtiradi.

Maktab davrining bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish jarayonida bolalarda shunchaki evolyutsion o'zgarish emas, balki sifat jihatidan bir yangilanish yuz beradi. Bu jarayonda o'quvchi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jihatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha ko'rsatish mumkin: boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy rivojlanishi bilan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning nomutanosibliigi; bilimlarning hamisha ham mantiqqa asoslanmagani; oila bilan maktab tarbiyasi o'rtasidagi

tafovut yuqori sinf o'quvchilariga xos bo'lgan harakatchanlik bilan intizom tizimining nomutanosibligi; ishtiyoqning zo'rliqi, mustaqillikka moyillik, erkinlik, mustaqillik sari intilishning balandligi bilan ta'lim-tarbiya jarayonidagi bir xillik, sustlik; odamlarga, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarashning kuchayishi bilan ta'lim jarayonida bunday intilishlarni qondirish imkoniyatining yetishmasligi; tabiiy taraqqiyot bilan ta'limiy-tarbiyaviy jarayon orasidagi nomutanosiblik singari jihatlar ko'zga tashlanadi.

Boshlang'ich sinf yoshidan o'quvchilarni kitob o'qishga yo naltirishning yana bir yo'li ularni rag'batlantirishdir. O quvchilar ma'lum bir sinfni tamomlasalar ularga maqtov yorliqlari beriladi. Ana shu yorliqlar o'rniga taniqli shoir yoki yozuvchilarning kitoblari sovg'a qilinsa, foydaliroq bo'ladi. Qolaversa, taniqli bolalar shoirlari yoki yozuvchilari bilan o'quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish, ular bilan yosh kitobxonlar o'qigan asarlar yuzasidan suhbatlar uyushtirish ham o'quvchilarning badiiy so'zga muhabbatini oshirishi tabiiy.

Xullas, yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda kitobdan oqilona foydalanish, buni to'g'ri tashkil eta bilish oilada ota-onaning, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning burchidir.

Ma'lumki, dunyoda jami yetti mingdan ortiq tillar mavjud, bu tillarning lug'at boyligi bir-biridan keskin farq qiladi. Har bir tilning lug'at tarkibi shuningdek, tildagi so'zlar majmuasi leksika deb yuritiladi.

Har bir tilning leksikasi ishlatilishi, tarixiy kelib chiqishi va boshqa omillar asosida turli qatlamlarga bo'linadi va uning-leksikologik tomonidan o'rganiladi.

Maktabda “leksika”ni o‘rganish umumta’lim maktablarida amaliy ahamiyatga ega, bunda o‘quvchilar faqat tilning leksik tartibi bilan tanishib qolmay, balki olgan bilimlarini berilgan tartibda ishlatishni ham o‘rganadilar. So‘zlar ustida ishlash turli tillarni so‘z miqdorini o‘rganishga, so‘zlarni maqsadiga qarab ishlatish malakasiga ega bo‘ladi. Bo‘limni nazariy tomondan tushuntirish o‘quvchida so‘zga bo‘lgan aqliy munosobatni tarbiyalaydi, o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi va uni o‘rganishga intiltiradi.

Maktabda o‘quv predmeti sifatida tilni o‘rganish tizimi tilning barcha tomonlarini ya’ni fonetikasi, leksikasi, so‘z yasalishi va grammatikasining o‘zaro ichki bog‘lanishiga asoslanadi.

So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi deyiladi. Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologik lug‘at tarkibidagi so‘zning nutqi ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chirish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologik lug‘at ustida ishlash metodikasining mengvistik asosi hisoblanadi.

So‘zning ma’nosini tushuntirish kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darslarning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi. Bunda asosan, darslikda birinchi marta uchragan, o‘qituvchilar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntirilishga katta e’tibor berish



kerak. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi.

Biz maktabda leksikologik materiallarni o'rganish uchun uch xil tushuncha va yo'nalishni taklif qilamiz.

1. O'quvchilar avval so'zlarning semantik xarakteri bilan tanishishi ularning bog'lanish xususiyatini o'rganishga qaratiladi. Bunga zarur tushunchalar quyidagicha bo'ladi: bir ma'noli va qo'p ma'noli so'zlar, asl va ko'chma ma'noli, omonim, sinonim va antonimlar.

2. Undan keyin tilning lug'aviy tarkibini o'rganish jarayonidagi alohidaligi: asosiy o'zbek tili va boshqa tillardan o'zlashgan leksika. Eskirgan (arxaizmlar va tarixiy so'zlar) va yangi (neologizmlar) so'zlarni o'zlashtirishga qaratiladi.

3. So'zlardan foydalanish xususiyatiga qarab ularning bog'liqligi keng tushuntirish ishlarini olib borish aloxida ahamiyat kasb etadi. Keyin o'quvchilarga umumiy qo'llaniladigan (professional va dialektik) leksika bilan tanishtiriladi.

Metodik adabiyotlarda leksikani o'zlashtirish boshqichlariga yetarlicha e'tibor berilgan:

1. Etimologik va semantik yo'l bilan terminlarni o'quvchilarga atroflicha tanishtirish.

2. Berilgan so'zlarning leksik ma'nosini ochib berishga, ularning bosh ma'nosiga e'tibor berish.

3. Berilgan leksik birlikni ochishda, uni kuzatish orqali amalga oshirish.

4. Barcha o'rganilayotgan leksik birliklarni tayanch jadval va sxemalar orqali umumlashtirish.

5. Tushunchaning formasini aniqlash, uni tushuntirish va xotirada saqlash.

O'quvchilarni leksik tushunchalarni egallanganligini, ularni tushuntirish va yodda saqlash orqali bilib olishimiz mumkin. Leksik tushunchalarni bosqichma-bosqich egallashda o'quvchilar olgan bilimlari, aniq namunalardan moslashishga yordam beradi.

Til o'qituvchilarining fikricha bu ish 94-95% bajarilmoqda: ya'ni tushuncha xarakteri o'ziga xos aniq ko'rinishga ega bo'lib qolmay uning alomatlari bilan bo'laklarga ajratish yuli bilan leksik birlik ma'nosini tuzilishi va mazmuniga egadir.

Til leksikasini o'zlashtirishda o'quvchilar tushunchalarni aniqlash va talaffuz qilishini kuzatish bo'yicha qilingan birinchi qadamdir. Berilgan nutq amaliyotida leksikadan to'g'ri foydalanishga qaratilgan malaka hosil qilish yo'nalishida katta ishlarni amalga oshirish kutilmoqda. O'quvchilarga berilayotgan bilimlarni mustahkamlash bosqichida metodik adabiyotlarda leksik-ma'no, leksik-grammatik, leksik-uslub mashqlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi.

Birinchi guruh mashqlarining tahlil qilinayotgan leksik holati uchun tanlash yo'li bilan matnda qo'llashni kuzatishni tashkil qilish ya'ni izohli lug'at, sinonim va antonim lug'atlardan foydalangan holda semantik xususiyatga ega bo'lgan so'zlarni qo'llash lozim.

Leksik grammatik mashqlarga qo'yilgan vazifalar ko'p darajada so'z birikmalari va gaplarni qurilishiga bog'liq. Bunday mashqlarni bajarilishi faqat so'zni ahamiyatini tushuntiribgina qolmay, balki o'quvchilarga uni o'zgarishini, so'zlardan gap tuzishni to'g'ri hosil qilishga o'rgatildi.

Leksik-stilistik xususiyatli mashqlar o'quvchilarda ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha nutqni to'g'ri tanlashga yo'naltiradi. Bunda matnni u yoki bu leksik uslubda olinishiga e'tibor qaratish lozim bu esa uchinchi guruh mashqlari bayon va insho yozish bilan amalga oshirsa bo'ladi.

Yuqori ko'rsatilgan jarayonlarga asoslangan muvofiqlashtirilgan mashqlar, leksikologiya bo'yicha berilgan materiallarni sifatli o'zlashtirilishiga shuningdek nutqni rivojlantirishga yetarlicha ta'sir qiluvchi amaliy malakalarni hosil qiladi. Bunday mashqlar mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarda tilga bo'lgan sezgini mustahkamlaydi, so'zlarga aqlan va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Shu bilan birga yaxshi nutqga ega bo'lish talabiga xamda mos aniqlik, ifodalilik, so'zlarni o'rniga qo'llashga yo'naltiradi.

O'quvchilar leksikani o'rgatish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ona tili kursini o'rganish bo'yicha boshqa bo'limlarda ham davom etishi yoddan

ko'tarilmasligi lozim.

Shuni taqidlash kerakki, Morfologik va orfografik bo'limlarda olingan nazariy bilimlar o'zbek tili darsliklarining boshqa bo'limlarida ya'ni morfemika, so'z yasalishi morfologiya, orfografik bo'limlaridagi mashqlar bilan mustahkamlanadi. O'zbek tili darslarida lug'at-orfografik yuzasidan ishlar olib boriladi. Bu yo'nalishda so'zlarni semantik, imlo va talaffuz nuqtayi nazarida ko'rib chiqiladi. Bir tilli lug'atlar asosida yozilgan mashqlar alohida diqqatga sazovordir:

- Bu mashqlar kerakli umum predmetlar rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, faol va nofaol so'zlar bilan ishlashda yaxshi samara beradi;

- O‘quvchilar o‘zbek tilini o‘rganish davomida og‘zaki fikrlash va yozishda asosan bir tilli lug‘atlardan foydalanadilar.

Bizni kuzatuvlarimizga ko‘ra sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ham o‘qituvchilarning ko‘pchiligi “leksikologiya” bo‘limi ya’ni so‘z ma’nosi ustida ishlashni afzal ko‘radilar.

### **Bob bo‘yicha xulosa**

Ma’lumki, kreativlik ichki aqliy bir-biriga bog‘liq omillar uyg‘unligi asosidagi yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsuli bo‘lib, u insonning ma’naviy va intellektual kamolotga erishishida muhim omillardan biri

bo‘lib hisoblanadi. Bunday intellektual ijodiy mahsul yordamida inson faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish kirita bilishdek ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin. Bu esa o‘ziga xos kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda kreativ yondashuvni ta’lim oluvchilarning ko‘rib chiqilayotgan muammo yechimlaridan eng optimalini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb atash mumkin. Uning yordamida ta’lim oluvchilarni mustaqil ijodiy yondashuv negizida ko‘rib chiqilayotgan muammoni yechishning yangi variantini topishga undash jarayonini samarali tashkil etish mumkin bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining bosh vazifasi mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bu jarayonda ona tili ta’limining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki, narsalarni idrok etish, atash va

ulardan nutq jarayonida unumli foydalanish nutq birliklari, aniqrog'i, so'z orqali amalga oshiriladi.

Hammaga ma'lumki, o'quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga o'rgatish boshlang'ich ta'lim bosqichida boshlanadi. Alifbo darslarida o'quvchilarning savodi chiqarilgach, "Ona tili" fanida so'zlar, ularning xususiyatlari, so'zlarni bir-biriga bog'lash, gap va matn tuzishga o'tiladi.

Mazkur fan doirasida o'quvchilar so'zlar dunyosiga sayohat qiladilar, so'zlarning bir-birlaridan farqini topishga o'rganadilar, ular o'rtasidagi o'xshashlik, qarama-qarshilik, shakldoshlik munosabatlariga diqqatini qaratadilar. Eng keraklisi, nutq jarayonida qaysi so'zdan foydalanish kerakligini topishga odatlanadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda so'zlarni boshqa so'zlar qurshovida, ya'ni matn ichida ishlata olish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til o'qituvchilarining fikricha bu ish 94-95% bajarilmoqda: ya'ni tushuncha xarakteri o'ziga xos aniq ko'rinishga ega bo'lib qolmay uning alomatlari bilan bo'laklarga ajratish yuli bilan leksik birlik ma'nosini tuzilishi va mazmuniga egadir.

Til leksikasini o'zlashtirishda o'quvchilar tushunchalarni aniqlash va talaffuz qilishini kuzatish bo'yicha qilingan birinchi qadamdir. Berilgan nutq amaliyotida leksikadan to'g'ri foydalanishga qaratilgan malaka hosil qilish yo'nalishida katta ishlarni amalga oshirish kutilmoqda. O'quvchilarga berilayotgan bilimlarni mustahkamlash bosqichida metodik adabiyotlarda leksik-ma'no, leksik-grammatik, leksik-uslub mashqlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi.

**III BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA O‘QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARIDA SO‘Z MA‘NOSI USTIDA  
ISHLASH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV  
QOBILİYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA OLIB  
BORILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI**

**3.1. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi “Katta  
bo‘lsam, nobel mukofoti olaman!” matni orqali o‘quvchilarning  
kreativ qobiliyatlarini o‘stirish**

Matn bilan ishlash, matnni tahlil qilish ta’limi o‘quvchining u yoki bu badiiy asarni o‘qib, tushunishining o‘zini yetarli emas deb hisoblaydi. O‘quvchi asarga yangicha yondasha bilishi kerak. Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining saviyasi va bilimdonlik darajasiga bog‘liqdir. Shunda o‘quvchining kichik yoshidan narsa va hodisalar, odamlar haqida mustaqil nuqtai nazari shakllana boradi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu fazilat o‘zgalarning tashqaridan bergan ko‘rsatmalari mahsuli emas, kichik o‘quvchining shaxsiy fikri, mustaqil o‘ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo‘ladi.

2-sinf uchun mo‘ljallangan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining “Katta bo‘lganimda Nobel mukofoti olaman” bo‘limida Nobel olaman matni berilgan bo‘lib, bu matnda mavzu darslik maqsadidan kelib chiqib hayot bilan, o‘quvchilarning ijtimoiy qiziqishlari, qisman grammatika bilan bog‘lab tushuntirilgan<sup>35</sup>. Biroq o‘qituvchilarning

---

<sup>35</sup> Mavlonova K., Azimova I. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – B. 120.

barchasi ham dars jarayonida darslikning maqsadidan kelib chiqib yondasholmayotganliklari dars saviyasining yuqori bo‘lolmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Matn mazmuni quyidagicha:

“Ismim - Muhammad, familiyam - Haydarov. Ikkinchi sinfda o‘qiyman.

Men tabiatdagi g‘aroyib narsalarga qiziqaman. Shuning uchun ham eng sevimli fanim - tabiiy fanlar.

Tabiatda sirli narsalar ko‘p. Oddiygina yomg‘ir yoki shamolning qanday paydo bo‘lishi haqida o‘qisam, hayratlanib ketaman. Ayniqsa, osmondagi yulduzlar, sayyoralar haqida ko‘proq bilgim keladi.

Katta bo‘lsam, astronom bo‘laman. NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayman. Ularga koinotni o‘rganishda yordam beraman. O‘zim ham fazoviy kemalar yasayman. Ularda fazogirlar Oy va Marsga uchishadi.

Yaxshi astronom bo‘lish uchun hamma fandan a‘lo baholarga o‘qish kerak. Fizika, matematika va kimyoni chuqurroq o‘rganish kerak. Chunki boshqa galaktikalarga uchsak, bu bilimlar kerak bo‘ladi.

Kelajakda Nobel mukofotini olmoqchiman. O‘zbek olimlari haligacha bu mukofotni olmagan. Men Nobel mukofotini olgan birinchi o‘zbekistonlik bo‘lishim mumkin. Buning uchun esa hamma odamlarga foyda keltiradigan katta ish qilish kerak. Bu oson emasligini bilaman. Lekin men albatta harakat qilib ko‘raman”.

Darslikda quyidagi savollar berilgan:

1. Muhammad Haydarov katta bo‘lganida qanday ishlar qilmoqchi?
2. Ayting-chi, u o‘z maqsadiga erishishi uchun qaysi fanlardan yaxshi o‘qishi kerak?

3. U nima uchun Nobel mukofotini olmoqchi?

4. Siz ham Nobel mukofotini olishni istaysizmi? Nima uchun?

Darslikda berilgan savollar matnni tahlil qilish uchun yordam bersada, mukammal tahlil uchun yetarli emas. Ushbu matn tahlilida noodatiy yondashish maqsadga muvofiq bolardi. Suhbat metodi uchun quyidagi qo'shimcha savol va topshiriqlardan foydalanish o'rinli bo'ladi:

1. Yer yuzida yashaydigan odamlarning ism, familiya bilan nomlanishi nimani anglatadi?

2. Siz ham o'z ismingizning ma'nosini bilasizmi?

3. G'aroyib narsalar deganda nimani tushunasiz? G'aroyib narsalarga duch kelganmisiz?

4. "Tabiatda sirli narsalar ko'p" jumlasida, sizningcha, nimalar nazarda tutilyapti?

5. Yomg'ir yoki shamolning qanday paydo bo'lishi haqida o'ylab ko'rganmisiz? O'ylagan paytingizda qanday javob topishga harakat qilgansiz?

6. "Hayratlanmoq" so'zini qanday izohlaysiz? Sizning hayratlanishingizga sabab bo'ladigan narsalar haqida aytib bera olasizmi?

7. Tundayulduzlarning holatini kuzatganmisiz? Ular haqida bilgingiz kelganmi? Yulduzlarning holati sizni hayratlantira olganmi?

8. Astronom qanday kasb egasi ekanligini bilasizmi? Ularning asosiy vazifasi nimadan iborat?

9. "Koinotni o'rganish" deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, koinotni o'rganish qiziqmi?

10. Fazoviy kemalar nima uchun xizmat qiladi? Fazoviy kemalarning koinotga uchish jarayonini kuzatganmisiz? Bu jarayon



qanday amalga oshadi?

11. Oy va Mars haqida sizda yana qanday qo‘shimcha ma’lumotlar bor?

12. Fizika va kimyo fanlari nimani o‘rgatadi? Yoshi kata opa, akalaringizdan so‘rab ko‘rganmisiz?

13. Galaktikalar qancha katta hajmga ega ekanligini tasavur qilishga harakat qilib ko‘ring. Yulduzlar va sayyoralar unda qanday joylashganligini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qilib ko‘ring.

14. Nobel mukofoti olgan paytingizda o‘zingizni qanday his qilishingizni tasavur qilib ko‘ring.

15. “Birinchilik” degan jumlaning qanday tushunasiz? Boshqa sohalarida birinchi bor yutuqqa erishgan odamlarni bilasizmi?

16. “Harakat qilib ko‘rmoq” jumlasini qanday izohlaysiz? Oldm ham biror ishga harakat qilib ko‘rib erishgan natijalaringizni ayta olasizmi?

17. Maqsadga erishish uchun yaxshi o‘qishdan tashqari yana qanday fazilatlarga ega bo‘lish, qanday ishlarni bajarish lozim deb o‘ylaysiz?

Savol-javob jarayonida o‘quvchilarning barcha savollarga javob berishi shart emas. O‘quvchilar bilganlaricha javob berishga imkon yaratiladi. Eng muhimi, shu savollar bolaning tafakkuriga o‘rnashganligi, vaqti-vaqti bilan uni bezovta qilishi mumkinligi muhim hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan savol-javob asosida suhbat o‘tkazayotganda asosiy e’tiborni o‘quvchilarning fikrlashiga, shaxsiy munosabatlarini ifodalayotganliklariga qaratishi lozim. Mavzu hayot bilan bog‘lab o‘rgatilgandagina ahamiyatligini paydo qila oladi, o‘quvchilarda qiziqishni uyg‘ota oladi. O‘z o‘rnida o‘quvchilar maktabning zaruriyat-

liligini ichdan his qiladilar. Maktabga borish ehtiyoji o'quvchilarning sevimli va foydali mashg'ulotlari hisobidan paydo qilinishi muammoni hal etishning eng oson va samarali usuli hisoblanadi.

Dars ona tili va o'qish bilan bog'liq bo'lganligi bois ona tiliga oid ma'lumotlar ham berilishini o'qituvchi nazorat qila olishi lozim. Bunda o'quvchilarda ona tilini o'rganishga oid qanday jihatlar yetishmayotganini bilishi va o'z faoliyatiga tatbiq qila olishi ham kerak. O'qituvchi ona tili haqida bilim berishda haddan ortiq grammatik qoliplardan, takroriy mashqlardan foydalanish o'rinli emas. Bolalarga yoqmaydigan va ularning nazdidagi mantiqsiz nazariy ma'lumotlar va mashqlar hayotiy jarayon bilan bog'lab olib boriladigan amaliy grammatikaga almashtirila borishi darsning qiziqarliligi va foydaliligini ta'minlaydi.

Matn tahlilidan foydalanib quyidagicha lingvistik kompetensiyalarni kiritish mumkin: "G'aroyib narsalar" jumlasiga "Qanday narsalar?" so'rog'ini berish bilan uning mazmunini anglayapmiz. Ajoyib o'lkalar, chiroyli gullar, rangli rasmlar, kuchli mashinalar, qudratli mexanizmlar, moviy tog'lar. Narsalarning belgisini bildirgan so'zlar qanday vazifa bajaryapti? Ushbu so'zlarda -lar qo'shimchasi qanday ma'no anglatayotganligiga e'tibor bering.

O'lkalar, gullar, rasmlar, mashinalar, mexanizmlar, tog'lar so'zlarini belgi bildiradigan so'zlardan ayirib aytganimizda qanday o'zgarishni sezasiz? Bunday so'zlarni "Sifat" deb nomlaymiz va narsalar nomini aytganimizda uning xususiyatini, belgisini, sifatini bildirgan so'zlarning muhimligiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim.

Aytilgan fikrlardan anglayapmizki, matn tahlilida eng samarador usul savol-javob asosida tashkil etilgan suhbat hisoblanyapti. Faqat buning

uchun talab qilinayotgan yagona narsa - o'qituvchining bolalarni qiziq-tirgan savollarni matn

mazmunidan kelib chiqqan holda tuza olish imkoniyatiga ega bo'la olishligidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta'limning insonparvarlik yo'nalishiga solinishi deganda nimani tushunasiz?

2. Mustaqil fikrlash borasida psixologlarning fikrlariga qo'shilasizmi? Ularning fikrlarini izohlang.

3. Fikrlashning o'zi, sizningcha nima? U qanday amalga oshiriladi?

4. Fikr narsalarni yaratadi" degan iboraga qanday qaraysiz? Fikr moddiy narsalarga ham ta'sir o'tkaza oladimi?

5. "Tanqidiy fikrlash" jumlasidagi "tanqidiy" so'zi qanday mano bildiradi? Tanqidiy fikrlashning imkoniyat darjalari nimada deb o'ylaysiz?

6. Stereotiplar nima? Stereotiplarning inson fikrlashiga to'sqinlik qilishini tushuntiring.

7. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi "Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman!" matnida Muhammadning fikrlashiga baho bering.

8. Shu mavzuni tahlil qilayotganingizda "Nobel mukofoti" nima ekanligini 2-sinf o'quvchilariga qanday tushuntirasiz?

9. O'quvchilardan biri koinot sirlari borasida siz bilmaydigan savol berib qolsa, shu vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

10. Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman!" matni tahlili uchun berilgan savollarning barchasi ham matnga bog'liqmi yoki matn uchun xizmat qilmaydiganlari ham bormi?

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida savol va topshiriqlar ustida ishlash:

Bugungi o‘quvchilar ertaga qaysi kasb egalari bo‘lishidan qa’tiynazar, birinchi navbatda, madaniyatli, ma’naviy barkamol kishilar bo‘lishlari lozim. Bugungi kunda madaniyatli kishi erkin va savodli yoza bilishi hamda gapira olishi shart. Shaxsni o‘z fikr va tuyg‘ularini xoh og‘zaki, xoh yozma ravishda ifodalash malakasisiz rivojlantirish mumkin emas. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning dastlabki shartidir.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchini faqat o‘zi yaxshi bilgan, uni qiziqtiradigan masalalar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak bo‘ladi. O‘quvchi uchun o‘zi yaxshi bilmagan, o‘ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo‘q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko‘chirmachilikka majbur qiladi. O‘quvchida bezovta, uyg‘oq qalbni tarbiyalash uchun, awalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg‘otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga yo‘naltirish lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida darsga tegishli bo‘lmagan biror qiziqarli hayotiy mavzu va hodisalar, kino yoki futbol o‘yinlari kabilar muhokama qilinganda o‘quvchilarning ko‘p narsa bilishlari ayon bo‘ladi. Bu mazkur hodisalar o‘quvchilarning o‘zlari uchun bevosita qiziqarli bo‘lganidan dalolatdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklaridagi o‘quv materiallari bolalarning tabiati, yosh xususiyatlariga mos shakllantirilgan.

### 3.2. Tajriba-sinov ishlari va uning natijalari

“So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish (boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslari asosida)” mavzusidagi tadqiqot ishimi Navoiy shahridagi 2-17-maktablarda tajriba-sinovdan o‘tkazdim. Men maktabning eng tajribali o‘qituvchilaridan dars o‘tish uslublari boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari, o‘quvchilarning so‘z boyligi, ularni darsga qanday jalb qilish va qiziqtirish, rag‘batlantirish va baholash xususiyatlari, uy vazifalarini tekshirish yo‘llari haqida ham ma‘lumotlar oldim.

Maktabda darslarni o‘rganganlarim asosida boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, o‘quvchilar bilan lug‘at ustida ishlash va lug‘at boyligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ishlar olib bordim. Darsga o‘quvchilarni to‘liq jalb qilish maqsadida noan‘anaviy dars usullaridan ya‘ni o‘yin topshiriqlardan foydalandim, tarbiyaviy soatlar, tadbirlar, turli xil anketa savollari, lug‘at daftarlar bilan ishlash, test, ijodiy matnlar yozish bo‘yicha musobaqalar uyushtirdim. Mavzuni tushuntirishda turli xil ko‘rgazmali qurollardan foydalandim.

Yakunlovchi tajriba-sinov ishlariga 110 nafar o‘quvchilar jalb etildi. Nazorat va tajriba-sinov ishlarini tanlashda eksperimentning birinchi bosqichida erishilgan natijalariga asoslanildi hamda o‘zlashtirish darajasi deyarli bir xil bo‘lgan sinflar olindi.

Tajriba - sinov ishlarining natijalarini umumlashtirishda quyidagi me'yorlar asos qilib olindi.

1. Matnlarni o'qish va mazmunini tushunish darajasi. Madomiki, ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'quvchilarining o'qish san'ati va o'qiganini tushunish malakalarini asosiy me'yoriy ko'rsatkich sifatida qabul qilgan ekan, bu tajriba- sinov ishlarining birinchi o'lchami sifatida qabul qilindi. O'quvchilarning o'qish malakalari so'zlar daqiqa hisobida aniqlandi. Mazkur malakalarini aniqlashda o'quvchilarning gap ohangiga rioya qilib, tez va ravon o'qiy olishi hisobga olindi. O'qiganini tushunish malakalari esa matn mazmunini so'zlab berish, matindagi asosiy fikrni aniqlay olishga qarab belgilanadi. Belgilangan me'yor doirasida o'quvchilar uch darajaga ajratiladi. Yuqori darajada bir daqiqada berilgan matndagi 20-25 ta so'zni to'g'ri ravon o'qiy oladigan, gapning ohangiga rivoya qilgan, o'qiganini tushunib, uning mazmunini o'z so'zlari bilan to'la so'zlay oladigan va matn mazmuni bo'yicha berilgan savollarga javob bera oladigan o'quvchilar kiritildi. Biz shartli ravishda o'quvchilarni "A" darajadagi o'quvchilar deb nomladik. O'rta darajadagi bir daqiqada berilgan matndagi 15-20 ta so'zni o'qiy oladigan, darak va so'roq gaplarni ohangiga rioya qilgan holda o'qib, buyruq gaplar ohangiga qiynaladigan, matn mazmunini o'z sozlari bilan so'zlab berishda bir qancha xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilar kiritildi. Shartli ravishda "B" daraja deb qabul qilindi. Quyi darajaga o'qish sur'ati bir daqiqada 10-15 ta so'zdan kam bo'lgan so'zlarni o'qiy oladigan, matnni ravon o'qiy olmaydigan, o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlab bera olmaydiga o'quvchilar kiritildi. Bu daraja shartli ravishda "D" daraja deb belgilandi.

2. O'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasi. Imloviy savodxonlik talaffuz me'yorlari ustida ishlash bilan qo'shib olib boriladi. Maktab ta'limining ilk davr laridayoq o'quvchilarning imlo savodxonligi ustida ishlash ularni kelajakda bilimli bo'lishiga tayyorlaydi. Imlo savodxonligi nuqtayi nazaridan o'quvchilar uch darajaga ajratiladi "A" darajaga 15-20 so'zdan iborat diktant matnini xatosiz yozgan yoki atiga bitta xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilar; "B" darajaga shu vaqt orasida diktant yoza olgan ammo 3-5 ta imloviy xatoga yo'l qo'ygan; "D" darajaga esa diktant yozishga qiynalgan, so'zlarni tashlab ketadigan hamda 6-8 tagacha imloviy xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilar kiritildi.

3. O'quvchilar lug'atining so'z bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu me'yor orqali biz so'zlarining ma'nosini tushunishini, aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Mazkur me'yor yuzasidan ham o'quvchilar uch darajaga ajratiladi.

Yuqori darajaga berilgan umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nolarini 80-100% ga to'g'ri topa olgan, so'zlarni muayyan uyalarga ajrata oladigan, ularning ma'nosini tushunadigan, berilgan yoki hosil bo'lgan so'zlar qatorini davom etira oladigan o'quvchilar; o'rta darajaga umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nolarini 55-80% ga to'g'ri topa oladigan, so'zlarni uyalarga ajrata oladigan, ammo ularning ma'nosini sharhlashda qiynaladigan; quyi darajaga esa topshiriqlarni qisman bajargan yoki umuman bajara olmagan o'quvchilar kiritildi.

4. O'quvchilarni o'z fikrini og'zaki ravishda to'g'ri bayon qila olishi darajasi. Biz og'zaki nutqning shakillanganlik darajasini aniqlashda o'quvchilarning rasmni kuzata olish, rasmda aks ettirilgan narsalarni fahmlay olish, hayotda kuzatgan, ko'rgan, bilgan narsalarini so'zlab bera

olishi, matndagi gaplarni mazmunan bir-biriga bog‘lay olishi, matn yaratishda mavzu talabini hisobga olishi singari malakalarning qay darajada egallanganligiga asoslandik. Bu me‘yor bo‘yicha ham o‘quvchillar uch darajaga ajratildi.

“A” darajaga hikoya, matn , she‘rni o‘qib, uning mazmunini tushunadigan, shu mazmunni o‘z bso‘zlari bilan so‘zlay oladigan, berilgan savollarga javob bera oladigan, fikrni mantiqan to‘g‘ri qura oladigan, kuzatgan, ko‘rgan, bilganlarini so‘zlab bera oladigan o‘quvchilar kiritildi.

“B” darajaga ana shu topshiriqlarni qisman bajarishga erishgan o‘quvchilar va “D” darajaga esa shu topshiriqlarni qoniqarsiz ahvolda bajargan yoki umuman bajara olmagan o‘quvchilar kiritildi.

5. O‘quvchilarning o‘z fikrini yozma ravishda bayon qila olish darajasi. Bu me‘yor o‘quvchilarni kuzatgan, ko‘rgan, eshitgan narsalarini yozma ravishda bayon qila olish vasifasini qo‘yadi. Yozma nutq og‘zaki nutqga qaraganda ancha murakkab bo‘lib, gapga ham so‘zni to‘g‘ri yo‘llash, gapni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakillantirish, har bir gapni chegaralay olish va ularni mazmunan bir-biriga bog‘lay olish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash kabilar bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilidan bilimining mavjud ahvolini aniqlash maqsadida ularning aylanma daftarlarini ham ko‘zdan kechirdik. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar qayta xotiralash yoki namunaga qarab bajarishni talab etadigan topshiriqlarni ijro etishda uncha qiynalmaydilar. Ammo, ma‘lum uyadagi so‘zlar ro‘yxatini tuzishda, tayanch so‘zlardan foydalanib matnlar tuzishda, ijodiy matnlar tuzishda, boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirishda, mavzularga oid



soʻzlarni nutqiy faoliyatda qoʻllashda, ulardan oʻrinli foydalanishda ancha qiyinchiliklarga duch kelayotgani maʼlum boʻldi.

Shunday qilib, boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, oʻquvchilarining soʻz boyligini oshirish, ona tilidan egallagan bilim darajasi, ularning mavjud ahvolini aniqlash, darslarni tahlil qilish, nazorat-sinov topshiriqlarining natijalari, yakkama-yakka suhbat oʻtkazish, yozma ish daftarlarini tekshirish kabi usullardan keng foydalanildi.

Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ishlash jarayonida har bir oʻquvchi bilan yakkama-yakka ishlashda, oʻz fikrini ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalashda, ularning nutqida uchraydigan tipik nuqsonlardan kelib chiqqan holda yoʻl qoʻyilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini koʻrishni taqozo etadi.

### Tajriba - sinov ishlarining natijalari

Me`yorlar	Nazorat sinflari				Tajriba - sinov sinflari			
	O`quv - chilar soni	“A” daraja	“B” Daraja	“D” daraja	O`qu v chila r soni	“A” daraja	“B” daraja	“D” daraja
1-me`yor	55	10 18,1%	20 36,5%	25 45,4%	55	15 27,2%	25 45,4%	15 27,2%
2-me`yor	55	10 23,6%	23 41,8%	19 34,6%	55	19 34,6%	27 49,1%	9 16,3%
3-me`yor	55	9 16,3%	17 30,9%	29 52,7%	55	17 30,9%	28 50,9%	10 23,6%
4-me`yor	55	10 18,1%	17 30,9%	20 36,5%	55	15 27,2%	27 49,1%	10 23,6%
5-me`yor	55	9 16,3%	20 36,5%	29 52,7%	55	17 30,9%	28 50,9%	9 16,3%

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida nazorat sinflari 95% ni, tajriba-sinov sinflari 98% ko`rsatkichga ega bo`ldi. Jadvalda qaysi me`yor bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichlari qanday bo`lganligi aniq berilgan.

## **Bob bo'yicha xulosa**

Dars ona tili va o'qish bilan bog'liq bo'lganligi bois ona tiliga oid ma'lumotlar ham berilishini o'qituvchi nazorat qila olishi lozim. Bunda o'quvchilarda ona tilini o'rganishga oid qanday jihatlar yetishmayotganini bilishi va o'z faoliyatiga tatbiq qila olishi ham kerak. O'qituvchi ona tili haqida bilim berishda haddan ortiq grammatik qoliplardan, takroriy mashqlardan foydalanish o'rinli emas. Bolalarga yoqmaydigan va ularning nazdidagi mantiqsiz nazariy ma'lumotlar va mashqlar hayotiy jarayon bilan bog'lab olib boriladigan amaliy grammatikaga almashtirila borishi darsning qiziqarliligi va foydaliligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, uni qiziqtiradigan masalalar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak bo'ladi. O'quvchi uchun o'zi yaxshi bilmagan, o'ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo'q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko'chirmachilikka majbur qiladi. O'quvchida bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, awalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg'otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga yo'naltirish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan bilimining mavjud ahvolini aniqlash maqsadida ularning aylanma daftarlarini ham ko'zdan kechirdik. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar qayta xotiralash yoki namunaga qarab bajarishni talab etadigan topshiriqlarni ijro etishda uncha qiynalmaydilar. Ammo, ma'lum uyadagi so'zlar ro'yxatini tuzishda, tayanch so'zlardan foydalanib matnlar tuzishda,

ijodiy matnlar tuzishda, boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirishda, mavzularga oid soʻzlarni nutqiy faoliyatda qoʻllashda, ulardan oʻrinli foydalanishda ancha qiyinchiliklarga duch kelayotgani maʼlum boʻldi.

Shunday qilib, boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida soʻz maʼnosi ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, oʻquvchilarining soʻz boyligini oshirish, ona tilidan egallagan bilim darajasi, ularning mavjud ahvolini aniqlash, darslarni tahlil qilish, nazorat-sinov topshiriqlarining natijalari, yakkamayakka suhbat oʻtkazish, yozma ish daftarlarini tekshirish kabi usullardan keng foydalanildi.

## UMUMIY X U L O S A

“So‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish (boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslari asosida)” bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish. Bu sinf o‘quvchilarini ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘rganishga qiziqtirish, imlo me‘yorlariga o‘rgatish hamda ana shu jarayon bilan uzviy bog‘liq holda nutqiy malakalar ustida ishlash o‘qitishning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. 2. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari lug‘atining kam so‘zlar bilan ta‘minlanganligi va so‘zdan gapda to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalana olmasligi tufayli o‘z fikrini ifodalashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelayotganligi aniqlandi.

3. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida beriladigan o‘quv topshiriqlarining sharti ko‘proq amaliy maqsadni ko‘zlashi zarur. Bu amaliy maqsadlar ona tilidagi barcha mavzular ustida ishlash, so‘zlarni to‘g‘ri yozish, matndagi gaplarni o‘zaro bog‘lash singarilarda o‘z ifodasini topadi.

4. Olib borilgan kuzatish va tajribalar o‘quvchilarning o‘qish va uqish malakalari ustida ishlash bilan birga chambarchas bog‘liq holda amalga oshirish lozimligini ko‘rsatdi. O‘qish va uqishning bir butun talabga

aylanishi nafaqatr o‘quvchilarning matn mazmunini tushunishi va so‘zlab berishini, balki, og‘zaki va yozma matnlar yaratishni ham osonlashtiradi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili va o‘qish savodxonligi fani bo‘yicha beriladigan o‘quv topshiriqlari qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterda bo‘lishi mumkin. Dars jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘quv topshiriqlarining mutanosibligiga amal qilsagina, o‘zlashtirish jarayoni samarali kechadi.

6. Tajriba-sinov ishlari ona tili va o‘qish savodxonligi mashg‘u-lotlarini “Topqirlar bellashuvi”, o‘yin-musobaqa, interfaol usullar tarzida tashkil etishning samarali ekanligini yaqqol namoyish etdi. Chunki darsning bu shakllari o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishlovchisiga aylantiradi, so‘z ma’nosi ustida ishlash, o‘quvchilarning so‘z zahirasini oshirib, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, ko‘rgan, eshitgan, kuzatgan, bilgan narsalarini og‘zaki va yozma shakllarda ixcham, to‘g‘ri va ravon ifodalay olish, nutqda o‘zbek adabiy tilining boy ifoda vositalarini ishga sola bilishga xizmat qiladi.

7. Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi jarayonida asosiy diqqat o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘z ma’nosi ustida ishlash, ularda so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish hamda anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash, fikrni gap va matn tarzida to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratildi.

8. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma’nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy topshiriqlar bajarishda, so‘z ma’nolari: ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar ustida

ishlashda o‘quvchilar faolligiga erishish, nutqini o‘stirish, darsda ko‘proq o‘quvchini ishlashga, harakat qilishga undashi, faol ishlovchi o‘quvchi hamda o‘qituvchi bo‘lishiga erishish yo‘llari ko‘rsatib o‘tildi.

9. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma‘nosi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi asosiy vazifa o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini o‘stirish, lug‘atini so‘zlar bilan boyitish, o‘quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so‘zlarning ma‘nosini aniq tushunish, bog‘lanishli nutqda u yoki bu so‘zdan o‘rinli foydalanish malakalari ustida ishlash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. - Тошкент, Ўзбекистон,2017. – 488 б.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi). Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017, 13-14-bet.
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) / Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони- Т. 2017, 7 февраль.
4. [www.lex.uz/](http://www.lex.uz/) Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил, 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ - 5850-сон Фармони. –Т. 2019, 21 октябрь.
5. “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 2019-yil 3-maydagi Prezident qarori.
6. Адизов Б.Р. Теоретические основы творческой организации начального обучения: Автореф.дисс. ... докт.пед.наук. – Т., 2003. – 43 б.



7. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. -280 б.

8. Алавуудинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. – Т., 2008.– 24 б.

9. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1994. - 44 с.

10. Алишер Навоий. Танланган асарлар. 20 жилдлик. 8-жилд. Ҳамса: Фарҳод ва Ширин. - Т.: Фан, 1991. – Б.122.

11. Ахлиддинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на матер.Национальной программы по подготовке кадров): Дисс. ... докт. пед наук. – Т.: 2002. – 44 с.

12. Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. - 61 б.

13. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: 1996. -145 б.

14. Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. докт. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.

15. Давлетшин М. Таълимнинг психологик асослари. Тошкент “Ўқитувчи”, 1978, 47-бет.
16. Джураев Р.Х. Теория и практика интенсификации профессиональной подготовки учащихся профтех училищ. – Т.: Фан, 1992. –259 с.
17. Формирование у обучающихся эстетического отношения к художественному наследию: Методик тавсиялар. – Т.: Т.Н. Қори-Ниёзий номидаги УзНИИПН, 1987. – 138 б.
18. Ҳамроев А.Р. Бошланғич синф она тили таълимини ижодий ташкил этиш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2005. -164 б.
19. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х.А., Хайдаров М., Ҳасанбоева О., Усмонов Н.Ў. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Т.: Фан ва технология, 2009, 672 б.
20. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi. Toshkent, Innovatsiya-ziyo. – Б. 140.
21. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фанл. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: Қори Ниёзий номи ЎзПФТИ, 2002. – 265 б.
22. Иноят У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс. докт. пед. наук. - Ташкент, 2003. - 327 с.
23. Касымов К. Художественно-эстетическое воспитание обучающихся в процессе кружковых занятий народной росписью по

дереву в общеобразовательных школах Узбекистана: Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1983. – 16 б.

24. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 2. Toshkent: Qaldirg‘och, 2019. – 195 b.

25. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 3.Toshkent:Qaldirg‘och, 2019.– 201 b.

26. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 1. Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2019. – 189 b.

27. Крутецкий В.А. Педагогик психология асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 1976, 159 б.

28. Mavlonova K., Azimova I. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. 2-qism. Darslik. 1-sinf uchun. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 220 b.

29. Mavlonova K., Azimova I. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-qism. Darslik. 2-sinf uchun. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 220 b.

30. Mavlonova K., Azimova I. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-qism. Darslik. 3-sinf uchun. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 220 b.

31. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2004. - 42 б.

32. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X., Yo‘ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang ch sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.– Toshkent:Chirchiq.2020, 669 b.

33. Milliy o‘quv dasturi. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 96 b.

34. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. докт. ... дисс. – Т.: 2007. – 357 б.

35. Нишонова С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: Пед. фанлари докт. дисс. автореф. – Т., 1998. – 37 б.

36. Nurmanova D.A., Xusanboyeva Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matn tuzishning birlamchi vositalarini o‘rgatish // Бошланғич таълимда она тили, математика ўқитишнинг долзарб муаммолари республика илмий – амалий анжумани материаллари. IX чиқиш. Андижон, 2020, 56-bet.

37. Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2005. -152 б.

38. Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – М.: Ўқитувчи, 1981. -103 с.

39. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2000. -147 б.

40. Тўрақулов Х.А., Тўрақулова И.Х., Осланова К.С. Бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш фаолиятини юксалтиришнинг инновацион технологиялари. – Toshkent: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020, 336 б.

41. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед.фанл.докт....дисс. автореф. –Т., 2015. –Б 10-21.

42. Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ. –Т.,1998.– 137 б.

43. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчиларнинг тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс.–Тошкент. 2005. - 277 б.

44. Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида луғавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.–Т.,2002. –123 б.

45. Зиядова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш.Пед.фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс.–Т.:1995. -161 б.

46. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent: Fan, 2008. – 120 b.

47. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1- том. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, 2006, 760 б.

48. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, 2006, 660 б.

49. Ғаниев Т.Т. Она тилидан машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. Олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1991. -194 б.

50. Ғозиев Э. Психология. Тошкент “Ўқитувчи”, 1994, 156 б.

51. Ғуломов А.Қ. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. –Т.: Ўқитувчи, 1987. -156 б.

### **Xorijiy adabiyotlar ro‘yxati**

52. Байков Ф.Я. Учение и творчество. –Л.:Лениниздат, 1979. -149 с.

53. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления.–М.:Знание,1985.-80 с.

54. Вольков И.П. Учим творчеству // Педагогический поиск. –М.: Педагогика, 1987. -с. 101-140.

55. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Просвещение, 1991. – С. 90.

56. Дорно И.В. Проблемное обучения в школе. –М.: Просвещение, 1984. -31 с.

57. Красота Т.С. Методика активизации мыслительной деятельности учащихся при изучении темы «Имя существительное» в 5-классах. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ленинград, 1979. -18 с.

58. Лашкарова Н.А. Роль межпредметных связей в повышении самостоятельности к творческой активности учащихся на уроках русского языка. –М.: 1970. -142 с.

59. Маткин В.В. Межпредметные проблемные познавательные задачи как средство формирования интереса к творческой деятельности школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М.: 1977. -28 с.

60. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. –М.: Просвещение, 1977. -240 с.
61. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. М.: Педагогика, 1976. -280 с.
62. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. –М.: Педагогика, 1982.-208 с.
63. Creative Teaching: Using Creative Teaching Methods in a Student-centered ESL Environment. Ivy Johnson. ivy.m.johnson@gmail.com.
64. Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies.–New York: Cambridge University Press, 1995.
65. John H. Holland Redwood City, California.–Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L.C.Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. – P.176-188.
66. A professional development program for the mother tonguebased teacher: addressing teacher knowledge and attitudes about mtbmlle A Dissertation Presented by Rebecca Paulson Stone [https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open\\_access\\_dissertations](https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open_access_dissertations).
67. Avila, H. A. (2015). Creativity in the English class: Activities to promote EFL learning. HOW, 22(2), 91-103. This article is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License. License Deed can be consulted at <http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>.

68. Mario Barajas, Fr  d  rique Frossard (University of Barcelona). Docent – digital creativity enhanced in teacher education. Framework of digital creative teaching competences. This project has been funded with support from the European Commission.

69. Larsen, Lars Jacob Ege, "Teacher and student perspectives on a blended learning intensive English program writing course" (2012). Graduate Theses and Dissertations. 12375. <https://lib.dr.iastate.edu/etd/12375>.

70. Universitat Rovira i Virgili teacher training in ICT-based learning settings. Design and implementation of an on-line instructional model for English language teachers. Doctoral thesis. Maria del Mar Camacho i Marth. ISBN: 978-84-690-7634 / DL: T.1394-2007.

71. Peter Edelenbos, Richard Johnstone. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Languages for the children of Europe. Published Research, Good Practice & Main Principles; Amiri F. IT-literacy for language teachers: should it include computer programming? System, Volume 28, Issue 1, 2015, -P. 77-84.

72. Demetriadis S. - Cultures in negotiation: teachers' acceptance/resistance attitudes considering the infusion of technology into schools, Computers and Education, Volume 41, Issue 1, 2013, -P. 19-37.

73. Wong S.L., Ab Jalil H., Fauzi Mohd Ayub A., Abu Bakar K., Tang S.H. Teaching a discrete information technology course in a constructivist learning environment: is it effective for Malaysian pre-service teachers? The Internet and Higher Education, Volume 6, Issue 2, 2003. -P. 193-204.



**TURSUNOVA SARVINOZ**

**SO‘Z MA‘NOSI USTIDA ISHLASH JARAYONIDA  
O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA  
O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ASOSIDA)**

**MONOGRAFIYA**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 20.12.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.  
“Times New Roman” garniturasini.  
Xisob-nashr tabogi. 5.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 99.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01  
+998 (94) 673-66-56**

## QAYDLAR UCHUN

## QAYDLAR UCHUN

## QAYDLAR UCHUN

## QAYDLAR UCHUN